



Мухаммад АЛИ

**АМИР ТЕМУР  
СОЛНОМАСИ**

**AMIR TEMUR  
SOLNOMASI**

**ХАЛҚАРО АМИР ТЕМУР ЖАМҒАРМАСИ**

**Муҳаммад Али**

**АМИР ТЕМУР  
СОЛНОМАСИ**

**AMIR TEMUR  
SOLNOMASI**

Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон  
Миллий кутубхонаси нашриёти  
Тошкент — 2008

**63.3 (5Ў)4**

**A 49**

*Халқаро Амир Темур жамғармаси Илмий кенгаши томонидан  
нашрга тавсия этилган*

Маъсул муҳаррир:

Абдусалом Умаров,  
социология фанлари доктори

Али, Муҳаммад.

Амир Темур солномаси /Муҳаммад Али; маъсул муҳаррир А. Умаров; Халқаро Амир Темур жамғармаси. — Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. - 52 б. — Тит. в. ва матн. парал. кирилл ва лотин алифбосида.

**ББК 63.3 (5Ў)4**

*Муҳтарам китобхон!*

*Соҳибқирон Амир Темур улуг бобомиз бўладилар...*

*Шундай деймиз, аммо бобомиз ҳаётини, шахсини яхши биламизми? У туғилган, яшаган давр ҳақида тасаввурга эгамизми? Бобомиз ким бўлганлар, қандай одам бўлганлар, қандай фазилатлари бор? Буларни яхши ўрганиш учун тарих китоблари битилган.*

*Улуг инсонлар ҳақида гапириш савобдир, билиб-билмай гапириш гуноҳи азим бўлади, дейдилар.*

*Биз улуг бобомиз ҳақида аниқ далиллар асосида ушбу Соҳибқирон ҳаётининг мухтасар солномасини оққа кўчириб Сиз — муҳтарам ўқувчига ҳавола қилишга журъат этдик.*

**ISBN 978-9943-06-195-8**

© Алишер Навоий номидаги  
Ўзбекистон Миллий кутубхонаси,  
нашриёти — 2008

## МУНДАРИЖА

Муқаддима.....	4
1.Амир Темур қачон ва қаерда туғилган?.....	5
2. Амир Темурнинг болалиги.....	6
3. 1360—1370 йилларда Туркистондаги вазият.....	6
4. Мустақил Турон давлатига асос солиниши.....	7
5. “Соҳибқирон” сўзининг маъноси.....	8
6. Уч йиллик, беш йиллик, етти йиллик юришлар ва уларнинг сабаблари.....	8
7. Амир Темур дипломатияси.....	9
8. Куч — адолатда.....	10
9. Амир Темур — бунёдкор.....	11
10. Амир Темур — илм-фан ҳомийси.....	12
11. Амир Темур — буюк саркарда.....	14
12. Соҳибқироннинг пирлари.....	15
13. Амир Темур фарзандлари.....	16
14. Соҳибқирон ҳарами.....	17
15. Амир Темур сажияси сийратига чизгилар.....	18
16. Амир Темурнинг вафот этиши.....	19
17. Дунё адабиётида, мусиқасида, тасвирий санъатида Амир Темур ҳақида яратилган илк асарлар...	21
18. Соҳибқирон ҳикматларидан намуналар.....	22
19. Амир Темур ҳақида давлат ва маданият арбоблари фикрларидан намуналар.....	23
20. Амир Темур ҳақида даставвал қандай асл манбаларни ўқиш керак?.....	25

## МУҚАДДИМА

**Ш**укурлар бўлсинким, Мустақиллик туфайли буюк бобомиз ҳақидаги ҳақиқатнинг рўёбга чиқиши, тантанаси кун тартибига қўйилди. Бу миллат тарихи, Ватан тақдири учун ниҳоятда муҳим эди. Такрор таъкидлаш жоизки, Соҳибқирон Амир Темурни бизга қайтариб берган, бу борада ҳормай-толмай ҳақни қарор топтирган зот *Ўзбекистон Республикаси Президентини Ислом Каримовдир*. Ушбу улуғ хизматлари учун халқимиз ундан беҳад миннатдордир. Президентимизнинг “Юксак маънавият – енгилмас куч” номли сермазмун китобида халқимизнинг топталиб келган миллий гурурини юксалтириш, Соҳибқирон бобомизнинг муборак номи, тарихий сиймоси, бой мероси ва хотирасини тиклаш йўлида мамлакатимизда қўйилган қутлуғ қадамлар тўғрисида батафсил ҳикоя қилинган. Ҳа, буюк бобомиз ҳақидаги ҳақиқат тикланди, адолат қарор топди. 1996 йил Ўзбекистонда “Амир Темур йили” деб аталди. ЮНЕСКО қарори билан Соҳибқирон таваллудининг 660 йиллиги нишонланди. Тошкент, Самарқанд ва Шаҳрисабзда Амир Темурнинг муҳташам ҳайкаллари ўрнатилди. Бугун биз ўзининг бемисл ақлу тафаккури, шахту шижоати билан жаҳон тараққиётига, тарих жараёнига улкан таъсир кўрсата олган, маданиятлар барпо бўлишида ҳолис хизмат этган сиймо ҳақида баралла сўз дея оламиз. Гуруримиз, фахру ифтихоримизни яшириб ўлтирмаймиз. Ватан узра Соҳибқирон Амир Темурнинг ўлмас руҳи кезиб юрганини ҳар лаҳза ҳис этамиз.

Соҳибқирон Амир Темур шахсияти жаҳон тарихида жуда кам учрайдиган ҳодисадир. “Буюк шахсларни миллат қайғуси, халқ дарди яратади”, деган эди Президентимиз. Чиндан ҳам, миллат қайғусидан, халқ дардидан яралган бизнинг бобомиздай улуғ зотнинг дунёга келиши замон зарурати ва талабига айланди, бошқача айтганда, тарих ва замон ўз қаҳрамонини ўзи жаҳон майдонига олиб кирди.

## 1. Амир Темур қачон ва қаерда туғилган?

*Амир Темур*, Темурбек, тўлиқ айтсак, Амир Темур ибн Амир Тарағай милодий 1336 йил 9 апрел куни Кеш (ҳозирги Шаҳрисабз) яқинидаги хушманзара кўҳна Хўжа Илғор қишлоғида туғилди.

**Отаси** — *Амир Тарағай*, Тарағайбек (туғилган йили номаълум — 1360) барлос қабиласининг нуфузли оқсоқоли эди. Ўзбек халқи таркибида тўқсон икки уруғ борлигини биламиз. Барлос ана шу “тўқсон икки”нинг биридир. Амир Тарағай Туркистоннинг ўша пайтдаги ҳукмдори Амир Қозоғон олдида ишонч қозонган хурмати бор беклардан ҳисобланар, Чигатой улуси беклари қурултойларига қатнашиб турарди. Ҳарбий ишларга майли йўқ, тақводор мусулмон, вақтини дарвешлар билан ўтказарди. Шарафиддин Али Яздийнинг ёзишича, “Тарағайбек уламо ва сулаҳо ва муттақийларга мушфиқ ва меҳрибон эрди ва буларнинг мажлисига борур эрди...”

**Онаси** — *Тегина Хотун*, Такина бегим, Такина Моҳбегим (тахм. 1318, Бухоро — 1353, Шаҳрисабз) Бухоро уламолари пешвоси мавлоно садр аш-шариъа, яъни шариат қонунларини шарҳловчи аллома Убайдуллоҳ ал-Бухорийнинг қизидир. Милодий 1334 йил 16 ёшда Тарағайбекка узатилган. Орадан икки йил ўтгач, *Темурбек* таваллуд топди.

Онаси ва отаси Шаҳрисабзда дафн этилган. Амир Темур онаси хотирасига баландлиги етмиш бир метр келадиган дунёга машҳур Оқсарой ёдгорлигини бунёд эттирди.

Ривоятларга қараганда, кунлардан бир кун Соҳибқироннинг саккизинчи бобоси Қочувли баҳодир туш кўрибди, тушида унинг кўйнидан бир юлдуз учиб чиқиб жамол кўргизибди ва шу заҳотиёқ сўнибди, кейин иккинчиси, учинчиси, тўртинчиси ярқиллаб чиқибди, бари сўнаверибди. Бу ҳол етти марта такрорланибди. Бироқ саккизинчи мартасида катта порлоқ юлдуз отилиб чиқибди-ю бутун дунёни ёритиб юборибди! Мана шуни Амир Темур юлдузи деб тахмин қилинади. Ундан яна бир неча кичик юлдузлар пайдо бўлибди, катта порлоқ юлдуз мағриб чизифига бош кўйиб сўнгандан кейин, кичик юлдузлар порлашда давом этибдилар...

## 2. Амир Темурнинг болалиги

**Б**олалигиданоқ табиатан оғир-босиқ, зеҳни ўткир, шошилмай фикрлайдиган Темурбек даставвал мактабда сабоқ олди, саводини чиқарди, устозлар назоратида камон дастасини ушлаш, ўқ узиш, найза тутиш, отларни саралай олиш, шикорлар уюштириш, чавандозлик ва қиличбозлик қилиш сирларини яхшилаб ўрганди. Шарафиддин Али Яздийнинг ёзишича, Темурбек ўн икки ёшида тенгқурлари билан “пошшо-вазир” ўйнашар экан. Темурбек подшо бўлар, қолганларнинг ҳар бирига бир “мансаб” берилар, қамишдан ясалган “гуноҳкор” одамни жазолаб, “юрт” бошқарар эканлар. Ўн икки ёшлигидаёқ юрт бошқариш ҳавосини олишга интилиш кучли бўлган, ниятни катта қилган.

Кичиклигиданоқ Куръони каримни ёд олганлигини айтишади, куръон ўқишда унинг овози қориларники каби салобатли ва ёқимли бўлган.

## 3. 1360 — 1370 йилларда Туркистондаги вазият

**М**илодий 1358 йилда Туркистон(Мовароуннаҳр) ҳукмдори Амир Қозоғон ўлдирилгандан кейин бошбошдоқлик авж олиб кетди. Тарихчи Хондамирнинг хабар беришича, мамлакат парчаланиб ўнга яқин бекликларга бўлиниб кетган, ҳукмдорлар ўзаро низолар, жанглар билан овора, бирлашишни ўйламасдилар. Шу сабабдан Мўғулистон хони Туғлуқ Темурхон 1360 — 1361 йилларда ягона ҳокими йўқ юртимизга босқин уюштирганда унга бас келадиган куч топилмади.

Амир Темур ана шундай вазиятда тарих майдонига кириб келди. Худо келажакда улуғ салтанат барпо қилишни унинг кўнглига жо этган эди. Бунинг учун мамлакатни бирлаштириш лозим бўларди. У ўзбошимча амирлар бошини бир жойга қовуштира олди. Оғир курашлардан кейин милодий 1370 йилда Амир Темур давлат бошига келди. Туркистон тарихида *1370 йил 9 апрелдан* бошлаб мутлақо янги саҳифалар бошланди.

#### 4. Мустақил Турон давлатига асос солиниши

Соҳибқирон Амир Темур Қашқар, Еттисув, Туркистон ва Хоразмнинг бир қисмидан иборат *Чигатоӣ улусининг* вориси сифатида майдонга чиқди ва улус ерларига тўлиқ эгалик қилишни ўзининг қонуний ҳуқуқи деб ҳисоблади. Ўша пайтдаги таомилга кўра, давлатга Чингизхон асос солган, шунинг учун фақат унинг авлодидан бўлганларгина хон аталишга лойиқ кўриларди. Амир Темур давлат бошига келишдан олдин чингизий Суюрғатмишхонни номигагина хон қилиб кўтарди, сохта обрўлар кетидан қувишга эҳтиёжи бўлмаган Соҳибқирон ўзини хон деб атамади, чунки у хон авлодидан эмас, балки оддий халқ ичидан чиққан қаҳрамон эди. Самарқандни Турон салтанатининг пойтахти деб белгилади, 1391 йилда Тўхтамишхон билан жангга бораётиб, Дашти Қипчоқда улкан тошга хотира сатрларини ўйдириб ёздирганда, ўзини *“Турон султони”* деб атади.

Биринчи қадамлар парчаланиб кетган юртни — Турон мамлакатини бирлаштиришдан бошланди. Бу ишни амалга ошириш учун Жета(бошқа номи Мўғулистон)га беш марта, Хоразмга беш марта юриш қилишга тўғри келди. Пароканда мустамлака юртимиз яхлитлик мақомига эга бўлиб, озодликка эришди. Бу тарихимиздаги диққатга сазовор улкан воқеалардан биридир.

Ўттиз беш йил (1370 — 1405) ҳукм сурган Соҳибқирон Амир Темур Марказий Осиё ҳудудларини ягона марказлашган давлатга бирлаштирди, Ҳинд ва Гангадан то Орол денгизигача, Тянь-Шандан то Босфоргача улкан империя барпо этди.

Амир Темур, энг аввало, мустақил улкан Турон давлатини тузган ватанпарвар, буюк давлат арбобидир, Ватанимизни мўғул босқинчиларидан озод этган халқ қаҳрамонидир. У мустабидларга қарши кураш ва мустақил давлат бунёд этиш ўзининг зиммасида турган буюк тарихий ватанпарварлик бурчи эканлигини чуқур англаб етди. Президент Ислом Каримовнинг: *“Амир Темурни англаш — ўзлимизни англаш демакдир”* деган сўзлари замирида ана шундай теран маъно мужассамдир.



## 5. “Соҳибқирон” сўзининг маъноси

*Соҳибқирон* сўзининг арабча саодатли, зафарли, ғолиб маънолари бор. Илми нужум(астрология)да ва афсоналарда Зуҳра(Венера) — дўстлик ва меҳру муҳаббат туғёнларини инъом айлагувчи, Муштарий(Юпитер) — омаду иқбол, музаффариёту шодиёналар сайёраси деб таърифланади. Шу икки сайёранинг бир буржда учрашган вақти саодатли лаҳзалардур, уни қирон дейдилар, шундай вақтда туғилган бола ўша қирон соҳиби ҳисобланади. Бундай боланинг бахтли, улуғ мартабалар эгаси бўлиши олдиндан башорат этилади. Шарқ мамлакатларида фалакиқтидор ҳукмдорларга бериладиган шарафли унвон. Амир Темур Кўрагон ҳам шу унвонга мушарраф бўлган.

## 6. Уч йиллик, беш йиллик, етти йиллик юришлар ва уларнинг сабаблари

Амир Темур урушнинг айтгани-айтган, дегани-деган қаттол бир замонда яшади, қиличу найзага суянган бу замоннинг ҳеч кимга бўйсунмайдиган ўз қонунлари бор эди. Уларга риоя қилмаслик ёки четлаб ўтишлик мумкин эмасди. Шунини таъкидлаш жоизки, Соҳибқирон худо измидан чиқмайдиган бандалардан эди, ҳеч қачон биринчи бўлиб уруш бошламасди, савашишларни ёқтирмасди. Унинг юришлари барчаси заруратдан келиб чиқарди. Энг аввало, у урушнинг олдини олиш чорасини изларди. Айрим ҳолларда, қайсидир мамлакатда зулм ортиб издан чиқиб кетган бўлса, у жойнинг улуғлари Соҳибқирон Амир Темурга кўмак сўраб мурожаат қилишарди. Масалан, Эрон, Ироқ ва ҳ.к. Амир Темур ўз “Тузуқлар”ида давлат ишларининг тўққиз улушини кенгаш(дипломатия)га ажратгани, бир улушини қиличга қолдирганини ёзган. У умр бўйи бунга риоя қилди. Муҳолиф мамлакатга такрор-такрор элчилар юборар, қуда-андачиликни йўлга қўйишга тиришар, қариндошчиликни ривожлаштириш йўлларини изларди. Бунинг ёрқин мисоли Хоразмнинг гўзал маликаси Хонзода хонимнинг Ту-

рон салтанати валиаҳди амирзода Жаҳонгир Мирзога узатилиши эди.

Амир Темурнинг “уч йиллик”(1386 — 1388), “беш йиллик”(1392 — 1396), “етти йиллик”(1399-1404) юришлари тарихдан маълум. Бу юришлар замирида Буюк Ипак йўлига эгалик қилиш учун курашлар ҳам ётади. Савдо йўллари давлатга катта даромад келтиришдан ташқари, халқаро сиёсий майдонда мавқе, обрў-мартабани юксак даражага кўтарарди.

Амир Темур юришлари, урушлар, албатта, ўз асоратларини қолдирди, лекин уларнинг жаҳон тарихида ижобий томонлари борлиги ҳам ҳақиқат.

Соҳибқироннинг юришлари Хитойда Минь сулоласи давлат бошига келганда мўғулларнинг Хитойга солаётган хавфини бартараф этди...

Олтин Ўрда ҳоқони Тўхтамишхон билан 1391, 1395 йилларда олиб борилган улкан жанглар Россияни мўғуллар зулмидан халос қилди, рус халқига марказлашган давлат тузиш имкониятини яратди.

Амир Темурнинг Усмонлилар империяси устидан қозонган галабаси Европани усмонлилар мустамлакасидан қутқариб қолди, уни Европа халоскорига айлантирди, Византия империяси умрига ярим аср умр қўшди. Француз тарихчиси Рене Груссе XX аср бошларида: «Амир Темурнинг Боязид устидан галабаси христиан оламини асраб қолди», деб ёзган эди.

## 7. Амир Темур дипломатияси

Амир Темур узоқни кўра оладиган моҳир дипломат сифатида тарихда чуқур из қолдирди. Ўша йилларда дунёнинг чеккаси ҳисобланган Испания мамлакати (у пайтда Америка кашф этилишига ҳали юз йиллар бор эди) қироли Энрико III, Франция қироли Карл VI, Англия қироли Генрих VI саройларига алоқалар боғлаш учун элчилар йўллади, мактублар ёзди, мактублар олди. Ўз навбатида испан, француз, инглиз, хитой ва бошқа хорижий мамлакатлар элчилари унинг саройига тез-тез ташриф буюриб туришар эди.

У улкан давлат арбоби сифатида Европа ва Осиё ўртасида

ўзаро алоқаларни мустаҳкамлашга хизмат қиладиган ягона макон яратиш чораларини қидирди. Бунда ўзаро савдо-иқтисодий муносабатлар ўрнатилишига катта эътибор берди. Жаҳоннинг нуфузли давлатлари билан яхши алоқаларни йўлга қўйди. Бу маънода бир тарафдан — Хитой, Хиндистон, иккинчи тарафдан — Франция, Англия, шунингдек, усмонлилар империяси, Испания, Италия, Миср ва бошқа давлатларни айтиб ўтиш мумкин. Соҳибқирон фаолиятининг жаҳоншумуллиги ҳам шундан намоёндыр.

## 8. Куч — адолатда

**Ш**арқда “одил подшо” тушунчаси қадим-қадимдан мавжуд ва халқ ана шундай подшони ҳамиша орзу қилиб келган. Соҳибқирон Амир Темур ана шундай подшо бўлишга интилди. “Куч — адолатда” сўзлари Амир Темур узугига ўйиб ёзилган эди ва давлат муҳрида ҳам акс этган эди. “Мамлакат зулмга чидаши мумкин, аммо адолатсизликка чидай олмайди”, деб ёзганди Амир Темур ўз “Тузуқлар”ида. Бу — салтанат шиори. Соҳибқирон бунга қаттиқ амал қиларди. Адолатнинг кучи шунчалар юксак эдики, агар мамлакатда бирор одам бир товоқ олтин ё кумушни бошига қўйиб, мағрибдан машриққача борса, ҳеч ким унга қўл чўзмас, олтин ё кумушдан биттаси ҳам камаймасди.

У ҳар қадамда, хоҳ ўзининг фарзандлари бўлсин, хоҳ бошқа фуқаро — барчага бирдай адолат кўзи билан қарарди. Сафарлардан қайтиб келганда, шахсан ўзи бозорни текширар, агар қассобу баққол, новвойлар ва ҳоказолар фойда топаман, деб нарх-навони ошириб юборган бўлсалар, адолат русуми бузилганини кўрса, эл олдига аёвсиз ўша гуноҳкорнинг жазосини берарди. Ёлгон гапни ёмон кўрарди. Адолат тамойилларини бузгани учун, ўгли амирзода Мироншоҳ, набиралари амирзода Пир Муҳаммад, Султон Ҳусайн Мирзолар жазоланганлари тарих китобларидан маълум. Муаррих Низомиддин Шомий “Зафарнома”да Амир Темурнинг 1366 йилда, ҳали давлат тахтига чиқмасдан тўрт йил аввал айтган шундай сўзларини келтиради: “Қайси бир подшоҳ ўз ишини ғаддор-

лик ва бевафолик асосига қурса, кишиларга озор бериш ва ҳалок қилишга ошиқса, унинг давлати чайқалиб, қарорсизликка юз тутади... Биз ўз салтанатимизни *одамларга эътибор бериш ва уларни ҳимоя қилиш* асосига қураётганлигимиз сабабли уларни юпантириб, хотиржам қиламиз...”

Одамларга, демак *халққа эътибор бериш ва ҳимоя қилиш* — Соҳибқирон адолатининг бош ўзагини ташкил қилар эди.

Ҳамма жойда амалда бўлган “Куч — адолатда” шиори бутун Турон давлати ҳудудида ахлоқий ва маънавий мезонга айланди.

## 9. Амир Тему́р — бунёдкор

Амир Тему́р қуриш, яратиш менталитети бўлган халқнинг фарзанди, табиатан бунёдкор бўлиб туғилган монанди йўқ зот эди.

“...Амр этдимки, — деб ёзади Амир Тему́р “Тузуқлар”да, - катта-кичик ҳар бир шаҳар, ҳар бир қишлоқда масжид, мадраса ва хонақоҳлар бино қилсунлар, фақир мискинларга лангархона(мусофирхона) солсунлар, касаллар учун шифохона қурдирсунлар ва уларда ишлаш учун табиблар тайинласунлар. Ҳар бир шаҳарда дорул-амора́т(ҳукмдор саройи) ва дорул-адолат(адолат саройи) курсунлар...”

Бунёдкорлик Соҳибқирон даврида давлат сиёсати даражасига кўтарилган эди, дейиш мумкин. Амир Тему́р фақат ўз мамлакатигагина эмас, балки бошқа юртларда ҳам бунёдкорлик ишларини амалга оширгани бунинг далилидир. Даставвал салтанат пойтахти қилиб белгиланган Самарқандни дунёнинг энг обод шаҳарига айлантирди, улугворлигини кўрсатиш учун, атрофида Дамашқ, Бағдод, Миср, Шероз, Султония каби дунёнинг машҳур шаҳарлари номлари билан аталган, боғ-роғларга кўмилган қишлоқлар барпо қилдирди.

Мамлакатда йўллар кенгайтирилди, кўприклар солинди, работлар тикланди, бозорлар оросталанди, бинолар қад кўтарди, хиёбонлар барпо этилди, боғлар яшнади. Бу боғлар ҳақида испан элчиси Руи Гонсалес де Клавихо ўз кундаликларида завқ-шавқ билан қалам тебратган. Уларнинг ичида Гулбоғ, Боғи

Дилкушо, Боғи Чинор, Боғи Нав ва бошқа боғлар номи бор. Самарқандда Кўксарой, Амир Темур Жоме масжиди, Биби-хоним мадрасаси, масжиди, Қусам ибн Аббос меъморий мажмуи, Амир Темур мақбараси, Шаҳрисабзда Дорут-тиловат мажмуи, муҳташам Оқсарой, Туркистон шаҳридаги Хожа Аҳмад Яссавий хонақоҳ-мақбараси, Тошкент яқинида Занги ота мақбараси, Наҳри Барлос ариғи, Кобул атрофлари, Фарғона водийси, Мурғоб водийсидаги ерларга, Озарбайжондаги Муғон чўлларига сув чиқарилиши, Шоҳруҳия, Байлақон шаҳарларининг бунёд этилиши, Табриз, Бағдод ва Гурганж шаҳарларининг қайта тикланиши...

Бундай мисолларни кўплаб келтириш мумкин. Шарафиддин Али Яздийнинг: “Соҳибқирон ҳар ердаким, иморатқа қобил ер кўрса эрди, ул ерда албатта бир иморат солур эрди...” деган сўзлари зинҳор муболаға эмас.

## 10. Амир Темур — илм-фан ҳомийси

Амир Темурнинг илм-фан ҳомийси сифатидаги хизматлари таҳсинларга сазовордир. Қайси мамлакатдаки хотиржамлик, тинчлик, дориломонлик бўлса, гул экиш, экин тикиш, ниҳолни парвариш этиш, уй қуриш, илм ўрганиш, китоб ёзиш, ашула айтиш, боғлар барпо этиш имкони туғилади, бир сўз билан айтганда, инсонлар қалбида маънавият чечаклари япроқ ёзади. Ва табиийки, мамлакатда илм ва фанни ривожланиши учун ана шундай хотиржамлик ва моддий таъминланганлик бўлиши керак. Амир Темур Турон салтанатида илм-фаннинг ривожланиши, униб-ўсиши, камол топишига қулай шароитлар, улкан имкониятлар яратиб берди.

Амир Темур, кўп машҳур муаррихлар таъкидлаганларидек, илмнинг қадрига етадиган, уни ривожлантиришга астойдил бел боғлаган, дунёнинг энг етук олимлари, тарихчилари билан бемалол суҳбатлаша оладиган донишманд ҳукмдор эди. Илм-фанга қизиқиш Амир Темурнинг хонадонидан бошланган эди десак тўғрироқ бўлади. Соҳибқирон хонадонида фарзандлар(шаҳзодалар, маликалар)га илм-фаннинг турли соҳа-

ларидан кўп сабоқлар берилар, мадрасаларда таҳсил олишлар давом эттириларди. Масалан, Мироншоҳ Мирзо учун махсус Ибн ал-Асирнинг “Ал-комил фит-тарих” (Мукаммал тарих) китоби таржима қилиб берилган эди. Соҳибқирон ҳаракатлари туфайли, унинг авлодлари ичида Муҳаммад Султон, Улуғбек Мирзо, Иброҳим Султон, Бойсунқур Мирзо, Ҳусайн Бойқаро, Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Кўчкунчихон, Комрон Мирзо, Гулбаданбегим, Зебуннисо каби шоирлар, олимлар, муаррихлар, хаттотлар, ҳомийлар, маънавият ва маърифат жонкуярлари бор бўлиб, улар илм-фан, маънавиятнинг қадрига етадиган ажойиб инсонлар бўлиб етишди. Уларнинг саъй-ҳаракатлари билан маданиятимиз юксак даражаларга эришди. Мисол учун, Улуғбек Мирзонинг астрономия мактаби айнан Самарқандда яратилди. Замонанинг илғор расадхонаси барпо этилди. 1018 та юлдуз таърифини ўз ичига олган “Зижи жади-ди Кўрагоний” жадвали жаҳон фанига улкан ҳисса бўлиб кўшилди. “Тўрт улус тарихи” асари эса халқимиз тарихини англаб етишда катта аҳамиятга эга. Соҳибқирон Амир Темур даври тарихини тўлиқ ва ишонарли ёритиб берган Шарафиддин Али Яздийнинг фундаментал “Зафарнома”(1425) асари Соҳибқироннинг набираси Шероз ҳокими, шоир ва хаттот Иброҳим Султоннинг раҳбарлиги, фидойилиги ва ҳомийлиги остида дунёга келди. 1519 йилда Улуғбек Мирзонинг набираси Кўчкунчихон топшириғи билан мазкур “Зафарнома” ва Рашидуддиннинг “Жоме ут-таворих” асарлари ўзбек тилига таржима қилинди.

Қолаверса, жаҳон адабиётининг буюк намоёндаларидан ҳисобланган Алишер Навоийнинг ижоди, Лутфий ва Ҳусайн Бойқаролар шеърляти, алломалар Қозизода Румий ва Али Кушчи асарлари, Камолиддин Беҳзоднинг дурдона миниатюра расмлари, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг бебаҳо “Бобурнома”си, гўзал шеърляти, илмий асарлари, муаррихлар Гиёсиддин Али, Низомиддин Шомий, Муиниддин Натанзий, Ҳафиз Абрў, Шарафиддин Али Яздий, Мирхонд, Хондамирларнинг солномалари — барча-барчаси Темурийлар даврининг маҳсулидир.

## 11. Амир Темур — буюк саркарда

**А**мир Темур жаҳоннинг тўртта машҳур саркардаларидан бири, кураги ерга тегмаган буюк лашкарбоши, худо берган салоҳиятини тўла-тўқис намоён эта олган, монанди йўқ буюк армия қўмондони эди. Жанггоҳлар санъати, уруш йўллари, лашкар тутиш қондаси, сафлар расми-русуми ҳақида Соҳибқироннинг “Темур тузуклари” номли нодир китобида батафсил ёритилган.

Милодий 1365 йилда Сирдарё бўйида Чиноз ёнида мўғуллар билан бўлган машҳур “Лой жанги”да Амир Ҳусайн бошлиқ Турон чериги(Амир Темур лашкарбоши эди) мағлуб бўлди. Бу 29 ёшли Амир Темурнинг умрида биринчи ва сўнгги мағлубияти эди.

1366 йилда Қаршида Темурбек бор-йўғи 243 киши билан 12 минг кишилиқ душманга қарши жанг қилди ва тангрининг инояти-ю, саркардалиқ салоҳияти билан музаффарият туғини баланд кўтарди.

1368 йилда Бадахшонда қўли баланд келган душман Соҳибқирон аскарларининг кўпини қириб ташлади ва 130 кишини асир қилди. Ёнида бор-йўғи 13 навкар билан қолган Амир Темур мардларча Добон тоғи тепасига чиқиб йўлни тўсди ва кўп жангу чорасиз қонли уринишлар эвазига ўз аскарларини душмандан қутқариб олди. Кейинчалик Амир Темур ўша жангни эслаб: “Кўп жанглар қилдим ва кўп воқеаларни бошдан кечирдим-у аммо бу жангдан қаттиғини кўрмадим...” деган эди.

Соҳибқирон дунёнинг 27 мамлакатини мусаххар қилди. Тахминан мингдан ортиқ жанг ўтказди, уларда зафар ҳамиша Соҳибқирон томонида бўлди.

Унинг дунёни лол қолдирган энг машҳур ва йирик жанглари қуйидагилардир:

**1391 йил 18 июн** — Кандирча дарёси бўйида (Самара вилояти) Олтин Ўрда хони Тўхтамишхон устидан қозонилган ғалаба. Ҳар томондан 200 мингдан ортиқ аскарлар иштирок этган. Бу ғалаба Турон давлати мустақиллигини яна ҳам мустаҳкамлади.

**1395 йил 15 апрел** — Олтин Ўрда хони Тўхтамишхонга қарши

иккинчи жанг Терек дарёси бўйида юз берди. Турон томонидан 250 минг, Олтин Ўрда томонидан тахминан 450 — 500 минг сипоҳ қатнашди. Жанг Амир Темурнинг узил-кесил галабаси билан қарор топди.

**1402 йил 20 июл** — Анқара ёнида Амир Темур ва усмонлилар императори Йилдирим Боязид билан замонанинг энг буюк жанги бўлиб ўтди. Амир Темур қўшини тахминан 200 минг, Йилдирим Боязид лашкари бир юз олтмиш мингдан иборат эди. Савашиш Турон султони Амир Темурнинг буюк галабаси билан яқунланди.

## 12. Соҳибқироннинг пирлари

Амир Темурнинг ёшликданоқ машҳур дин уламолари ва шайхларга эътиқодлари баланд бўлиб, буни падари бузруквор Амир Тарағайдан ўрганган эди.

Соҳибқироннинг бир неча пирлари бўлган, уларни икки гуруҳга ажратиш мумкин.

Биринчи гуруҳга *руҳониятли пирлар*, яъни Соҳибқирон туғилгунга қадар яшаб ўтишган табаррук зотлар — Туркистон мулкининг шайх ул-машойихи Хожа Аҳмад Яссавий, Султон Бурҳониддин Қилич, Шайх Нуриддин Басир (Қутби Чаҳордахум), Шайх Бурҳониддин Соғаржий ва Шайх Сафиуддин Ёқуб Ардабилилардир. Соҳибқироннинг мазкур зотлар руҳларига эҳтиромлар кўргизиб, ҳар бирига алоҳида мақбаралар тикланликлари, авлодларини эъзозлаб келганликлари ўзига пир тутганининг исботи бўла олади.

1397 йил куз ойларида Амир Темур Тошкент сари равона бўлди, ундан ўтиб Яссига борди ва Хожа Аҳмад Яссавий мазорини зиёрат қилди. “Бу азиз Муҳаммад Ханифа ўғлонларидин турур, алайҳи ва ала олиҳи вассалом”, — дейди Соҳибқирон пир турбатини тавоф айлар экан. “Буюрдиким, — деб ёзади Шарафиддин Али Яздий “Зафарнома”да, — ул мазорига устига иморати олий солдилар ва бир улуг тоқ (гумбаз) боғландиларким, кўк била сўзлашур эрди...”

Иккинчи гуруҳга Соҳибқироннинг замондошлари, Улуғ Амир бевосита *эътиқод этган ва иродат йўлини берган пирлар* — Шайх Шамсиддин Кулол, Шайх Зайниддин Абу Бакр Тойбо-



дий, Мир Саййид Барака жаноблари ҳисобланадилар. Шайх Зайниддин Абу Бакр Тойбодий Амир Темурга “Куч — адолат-да” сўзлари ўйиб ёзилган тилло узук, Мир Саййид Барака эса биринчи учрашувдаёқ салтанат тимсоли бўлган ноғора ва байроқ тухфа қилган эдилар. Ўзининг руҳий мадади, кўмаги билан ҳаминша Соҳибқиронга камарбаста бўлган Мир Саййид Барака то сўнгги нафасгача Соҳибқирон Амир Темур билан бирга умргузаронлик қилди.

Ушбу пирлар ҳақида тарихий манбаларда (“Темур тузуклари”, Низомиддин Шомий. “Зафарнома”, Шарафиддин Али Яздий. “Зафарнома”, Ибн Арабшоҳ. “Амир Темур тарихи”, Фасиҳ Ҳавофий. “Мужмали Фасиҳий”, Ҳафизии Абрў. “Зубдат ут-таворих” ва ҳоказо) маълумотлар келтирилган.

### 13. Амир Темур фарзандлари

**Аллоҳ таоло** Соҳибқиронга кўп фарзандлар ато этди. Эл корига ярайдиган бўлиб вояга етганлари олтига — тўрт ўғил, икки қиз.

**Тўнғич ўғил** — 1356 йилда Турмиш оқа деган хотинидан туғилган **Жаҳонгир Мирзо**, валиаҳд эди, 1376 йилда авжи гуркираб турган йигирма ёшида бетобликдан дунёдан кўз юмди. Ундан икки ўғил — Муҳаммад Султон билан Пир Муҳаммад Жаҳонгирлар қолганлар.

Қабри Шаҳрисабзда.

**Иккинчи ўғил** — 1356 йилда Тўлун оқа деган маъшуқаси (канизаги)дан туғилган **Умаршайх Мирзо**. 1394 йилда ҳалок бўлган. Ўттиз саккиз йил умр кўрган. Олти ўғил қолган: Пир Муҳаммад Мирзо, Рустам Мирзо, Искандар Мирзо, Аҳмад Мирзо, Сайид Аҳмад Мирзо, Бойқаро Мирзо.

Қабри Шаҳрисабзда.

**Учинчи ўғил** — 1366 йилда Менгли бика оқа деган маъшуқасидан туғилган **Мироншоҳ Мирзо**. 1408 йилда ҳалок бўлган. Қирқ икки йил умр кўрган. Олти ўғил қолган: Абу Бакр Мирзо, Умар Мирзо, Халил Султон Мирзо, Султон Муҳаммад Мирзо, Ийжал Мирзо, Суюрғатмиш Мирзо.

Қабри Самарқандда, Амир Темур мақбарасида.

*Тўртинчи ўғил* — 1377 йилда Тағой Туркон оқа деган маъшуқасидан туғилган *Шоҳруҳ Мирзо*. 1447 йилда вафот этган. Етти ўғил қолган: Улуғбек Мирзо, Иброҳим Султон Мирзо, Бойсунқур Мирзо, Суюрғатмиш Мирзо, Муҳаммад Жўки Мирзо, Жон Ўғлон, Муҳаммад Ёрий Мирзо. Улуғбек Мирзодан бошқа барча ўғиллар отасидан аввал дунёдан ўтганлар.

Қабри Самарқандда, Амир Темур мақбарасида.

*Биринчи қизи - Оқа Беги хоним* 1359 йилда Турмиш оқа деган хотинидан туғилган. Муҳаммадбек ибн Мусога узатганлар, бу никоҳдан Султон Ҳусайн Мирзо туғилган. 1382 йилда йигирма уч ёшида бетоб бўлиб оламдан кўз юмган.

Қабри Шаҳрисабзда.

*Иккинчи қизи — Султон Бахт бегим* 1362 йилда Улжой Туркон оқа деган хотинидан туғилган. Амир Муҳаммад Миракка узатадилар, лекин куёв Соҳибқиронга қарши тиг кўтариб чиқади ва жангда ҳалок бўлади.

Иккинчи марта Соҳибқирон хияни Амир Сулаймоншоҳга турмушга чиқади.

1430 йилда вафот этган.

## 14. Соҳибқирон ҳарам

Амир Темурнинг биринчи хотини Амир Жоку барлос қизи *Турмиш оқа*, иккинчи хотини Амир Ҳусайннинг синглиси *Улжой Туркон оқа* эди.

1370 йилда Амир Темур давлат бошига келгач, Амир Ҳусайн ҳарамидан бўлган чингизий Қозон Султонхон қизи *Сароймулк-хоним*га уйланди ва Кўрагон — куёв бўлди.

Тарихчилар берган маълумотларга қараганда, Соҳибқироннинг яна *Дилшод оқа*, *Туман оқа*, *Чўлпон Мулк оқа*, *Тўқал хоним* деган гўзал хотинлари бўлган. Тарихчилар Хондамирнинг “Насабнома”си, ноъмалум муаллифнинг “Муизз ал-ансоб” (XV аср) асари ва Турғун Файзиевнинг “Темурийлар шажараси”да Амир Темурнинг ҳарам ва авлодлари ҳақида батафсил маълумотлар берилган.

## 15. Амир Темур сажияси, сийратига чизгилар

Соҳибқирон Амир Темурни ўз кўзи билан кўрган араб тарихчиси Ибн Арабшоҳ ёзади:

“Амир Темур ...тенги йўқ феъл-атворли, теран мулоҳазали, унинг тафаккур денгизининг қаъри йўқ. Амир Темур баланд қадли, узун бўйли, тик қоматли, қадимий паҳлавонлар авлодидан бўлиб, кенг пешонали, катта бошли, ғоятда кучли ва салобатли, бўла, ранги оқу қизил юзли, доғсиз, қўл-оёқлари бақувват, елкалари кенг, бармоқлари йўғон, пойчалари семиз, серсоқол, ўнг оёқ-қўли чўлоқ ва шол, икки кўзи бамисоли икки шамдек бўлса-да, шодлиги билинмас, овози йўғон эди; у ўлимдан кўрқмас, ёши етмишга етган бўлса-да, изтиробсиз, вазмин. Бадани тўла ва пишиқ, худди зич(қалин) тош мисоли қаттиқ эди. У ҳазил-мазах, ёлғонни ёқтирмас, ўйинкулги-ю кўнгиляхушликка майлсиз, гарчи сўзда ўзига озор етадиган бирор нарса бўлса ҳамки, садоқат унга ёқар эди; у бўлиб ўтган ишга азият чекмас ва ўзига ҳосил бўладиган ютуқдан шодланмас эди... Кўпинча унинг мажлисида уятсиз сўзлар, қон тўкиш, асир олиш, нақбу форат қилиш ва ҳарам(ҳақиқа) ҳақорат гаплар бўлмасди. У беҳато(нишонга ургувчи) фикрли, ажойиб фаросатли, мислсиз даражада бахтли, улугворлиги ўзига мувофиқ, қатъий азм билан сўзловчи, бошига кулфат тушганда ҳам ҳақгўй киши эди...”

Амир Темур сайиду шарифларни ҳурмат қилар, уламо-ю, фозилларга юксак иззат кўрсатар, қадрига етар, қўлидан бир иш келадиган жамики уста-ҳунармандлардан, касб эгаларидан меҳрини дариф тутмасди.

Тарихчиларнинг гувоҳлик беришларича, дунёнинг энг етуқ олимлари, тарихчилари унинг суҳбатдошлари бўлишган, тарих ҳақидаги китобларни ўқишни ва у ҳақдаги ҳикояларни тинглашни ниҳоятда хуш кўрган. Салтанат юмушларидан халос бўлгач, ҳар оқшом уламо ва фозилларни ҳузурига чорлаб, фан ва диннинг нозик жиҳатларидан суҳбатлар қураб, баҳслар уюштирар, теран саволлар бериб олимларни ўйлантириб

қўярди. Чуқур билими-ю зукколиги, турфа давлатлар ва уларнинг подшоҳлари тарихини яхши билиши билан Ибн Халдундай улкан олимни ҳайратга солганини айтадилар.

Аҳдида қатъий турадиган, ишонувчан, кечиримли, ҳаётга жўшқин меҳр қўйган, завқ-шавққа ташна, ҳамма нарсадан ҳабардор, ғоят қаттиққўл, ҳеч нарса раҳна сололмайдиган кучли иродага эга Соҳибқирон шикор қилишни, шатранж(шахмат) ўйнашни яхши кўрар, лекин ҳар бир шикорга, шатранж ўйинига аввало бўлажак жанглار машқи сифатида қарарди.

Донишманд ота, суюкли ёр, аҳли аёлига меҳрибон, меъёрни билган, нафсни жиловлай олиш қудратига эга бўлган Соҳибқирон ўз вақтини айшу ишрат билан ўтказишига ҳиммати қўймас, бир ишни бошласа, охирига етказмагунча тинчимас эди.

Амир Темур йигирма уч ёшларида қамоққа тушиб қолганида, қутулиб кетишдан умидини узиб, дунёдан кўнгли совиди. Иттифоқо, шу палла дарчадан ташқарига чиқмоқчи бўлиб деворда ўрмалаб кетаётган чумолига кўзи тушди ва кузата бошлади. Чумоли дарчага етай деганда пастга юмалаб тушиб кетди. У ҳеч нарса бўлмагандай яна юқорига интилди. Яна кулаб тушди... Бу ҳол кўп такрорланди, аммо чумоли ўрмалайверди, ўрмалайверди, тинмади, охири дарчадан ташқарига чиқиб кетишга эришди!

Темурбек ўз-ўзига деди: “Ё раб! Мен шу чумоличалик ҳам бўлолмайманму?!..” Бу нарса унга қаттиқ таъсир қилди-ю ғайрат ўтини алангалантирди. У тадбир ишлатиб қамоқдан қутулиб кетди. Бу воқеа умрбод унинг эсидан чиқмади.

Шарафиддин Али Яздийнинг ёзишига қараганда, “Бу подшоҳи комкор оғзини жоғир сори элтмади ва бир дам итоату ибодат фикридин ўзга кечмади. Ва муттасил иши Куръон ўқумоқ ва фақиру мискиннинг ғамини емоқ эди...”

## 16. Амир Темурнинг вафот этиши

Соҳибқирон Амир Темур Хитой сафарига бораётиб 1405 йил 11 феврал кунини ўтрор шаҳрига етганда қаттиқ оғриб қолди ва иситмаси кўтарилди бошлади. Касаллик кундан-кун кучаярди, аммо Соҳибқироннинг эс-ҳуши, ақли жойида эди. Соҳиб-

қирон ўзининг барча гуноҳлари учун тавба қилди. У ҳарам аҳлини ва улуг бекларни хузурига чорлаб васиятга оғиз очди: "...Ҳазрат Ҳаққдин умидим борки, агарчи гуноҳим кўб турур, аммо бу жиҳатдин менга раҳмат қилгайким, золимларнинг эликларин мазлумлардин қисқа қилибдурмен. Ва қўймадимким, менинг давримда қавийдан(зўравондан) заиф куч егай. Эмдиким, Пир Муҳаммад Жаҳонгирким, валиаҳд қилибмен ва ўрнумга қойиммақом этибменким, Самарқанд вилояти аники бўлгай. ...Анга муте бўлуб, иттифоқ била анинг ишига машғул бўлгайсиз, то олам бузулмагай ва мусулмонларга ташвиш ва заҳмат бўлмагай...

Раъйо ва фуқароу мискин ҳолатидин гофил бўлмагайсиз... Нечукким мен адлу эҳсон била оламини обод этибмен... Агар менинг васиятим била амал қилиб, адлу дод қилсангиз, кўб йиллар давлат ва мамлакат сизларда қолғуси турур. Ва агар сизлар аросида муҳолифат бўлса, яхши бўлмағусидур..."

Соҳибқирон Амир Темур Кўрагон 1405 йил 18 феврал чоршанба куни шаъбон ойининг ўн еттисида, намозшом ва хуфтон орасида жон омонатини ўз эгасига топширди...

Амир Темур Самарқандда Амир Темур мақбарасига дафн этилган.

\* \* \*

**Амир Темур Кўрагон милодий 1336 йил 9 апрел куни** таваллуд топди.

Милудий 1370 йил **9 апрел куни** 34 ёшида давлат бошига келди.

Подшоҳлик маснадида **36 йил** ўлтирди.

Ўғлонлар ва набиралар сони ҳам — **36 киши** эди.

Соҳибқирон наслидан **36 подшоҳ ва подшоҳзодага** давлатни бошқариш насиб этди.

## 17. Дунё адабиётида, муסיқасида, тасвирий санъатида Амир Темур ҳақида яратилган илк асарлар

\* **И**спан элчиси Руи Гонсалес де Клавихонинг “Самарқанд-га Амир Темур саройига саёҳат кундалиги(1403-1406)” Европа тилларида эълон қилинган биринчи ёзма манбалар қаторига киради.

\* Буюк рассом Рембрандт Бобурийлар замонидаги ҳинд миниатюраларидан илҳомланиб, Амир Темур ва унинг ворисларини портретда акс эттириб абадийлаштирди. Рассом Амир Темурни валиаҳдлар Умаршайх, Заҳириддин Бобур, Ҳумоюн ва Акбарлар даврасида тасвирлайди.

\* XVI асрда яшаган машҳур инглиз шоири ва драматурги Кристофер Марлонинг “Буюк Темур”(1587) номли ўлмас трагедиясида ёш Темурбек матонатли қаҳрамон, енгилмас баҳодир, ўзининг тенгсиз ақли, салоҳияти ва шижоати билан жаҳон тарихидаги пурқудрат подшоолардан бирига айлангани таърифланади. Трагедия XVII асргача саҳнадан тушмаган. Англияда Шекспир қиролик театри ҳамиша театр мавсумини шу спектакль билан бошлайди.

\* Бир неча европалик бастакорлар муסיқий асарларда Амир Темур образини яратганлар. XVII аср бошида итальян бастакори Гаспирни “Амир Темур” операсини яратди, опера Вена театрида саҳна юзини кўрди, бастакор Лео эса уни Неаполь театрида қўйдирди.

\* Антонио Вивальди, Сколари, Гендель ва бошқа бастакорлар ҳам бу мавзуда муסיқа асарлари яратганлар.

\* Соҳибқирон ҳақида Шарқнинг ўзида олти юздан ортиқ, бутун дунёда эса мингдан зиёд китоб ёзилган ва ёзилмоқда. **Ҳали дунёда ҳеч ким ҳақида, айрим арбоб ёки саркарда тўғри-сида, шунчалар кўп китоб ёзилмаган!** Бу улуғ бобомизнинг жаҳоншумул зот эканликларини яққол кўрсатиб турибди.

## 18. Соҳибқирон ҳикматларидан намуналар

- \* **Бир** ишга киришишдан олдин чиқишни ўйлаб қўй.
- \* Чин дўст улдирки, дўстидан ҳеч қачон ранжимаydi, агар ранжиса ҳам, узрини қабул қилади.
- \* Тажрибамда кўрилганким, азми қатъий, тадбиркор, ҳушёр, жанг кўрган, мард, шижоатли бир киши мингта тадбирсиз, лоқайд кишидан яхшироқдир. Чунки тажрибали бир киши минг кишига иш буюрадур.
- \* Юз минг отлик аскар қилолмаган ишни бир тўғри тадбир билан амалга ошириш мумкин.
- \* Бирор ишни бажаришни ўйласам бутун зеҳним, вужудим билан боғланиб, битирмағунимча ундан қўлимни тортмадум. Ҳар неки десам унга ўзим амал қилдум.
- \* Раият аҳволидан огоҳ бўлдим, улуғларини оға қаторида, кичикларини фарзанд ўрнида кўрдум.
- \* Яхшиларга яхшилик қилдим, ёмонларини эса ўз ёмонликларига тобшурдум.
- \* Ҳокимлару сипоҳдан қай бирининг халққа жабр-зулм етказганини эшитсам, уларга нисбатан дарҳол адолату инсоф юзасидан чора кўрдум.
- \* Очиқ юзлилик, раҳм-шафқат билан халқни ўзимга ром қилдим. Адолат билан иш юритиб, жабр-зулмдан узоқроқ бўлишга интилдим.
- \* Давлату салтанат уч нарса: мулк, хазина ва лашқар билан тикдур.
- \* Эрлик ишида аҳдни синдурмоқ раво йўқтур ва аҳдни синдурган кишини эр(киши) деса бўлмас.

\* Ҳукмдор ишни шу йўсунда олиб борсунки, токи у адолат, ҳақиқат, ҳукмдорлик заруриятлари ва раъиятпарварлик учун кафолат бўла олсун; унинг қоидаларига шундай бир тарзда амал қилсунки, токи у оламнинг ободлиги ва башарнинг тинч-тотувлиги билан якун топсун.

\* Ҳимматни баланд тутмак керак, кўнгулни худога бағишламак керак, то ҳазрати Аллоҳ ҳар ишда мададкор бўлғай.

## **19. Амир Темур ҳақида давлат ва маданият арбоблари фикрларидан намуналар**

\* Соҳибқирон Амир Темурнинг шахси унинг авлодлари бўлмиш фақат бизнинг эмас, балки минтақамиздаги барча халқларнинг, бутун маърифий инсониятнинг бойлигидир.

*Ислом Каримов*

\* Кимки ўзбек номини, ўзбек миллатининг куч-қудратини, адолатпарварлигини, чексиз имкониятларини, унинг умумбашарият ривожига қўшган ҳиссасини, шу асосда келажакка ишончини англамоқчи бўлса, Амир Темур сиймосини эслаши керак!

*Ислом Каримов*

\* Мен Амир Темур замонида бўлсайдим, унинг қилган ишларини бажара олмасдим. У менинг замонимда келсаиди, қилган ишларидан-да жуда кўп буюк ишларни адо этган бўларди...

*Мустафо Камол Отатурк*

\* Соҳибқироннинг ҳиммати ул эрдиким, йўллар анинг айёми давлатида эмин бўлғай ва худо бандалари ҳар сориким борсалар, аларга ташвиш ва тараддуд бўлмағай, фароғат била бориб келғайлар. Мунга кўб саъй қилур эрди...

*Шарафиддин Али Яздий*



\* Соҳибқирон давлатининг ўзига хос белгиларидан яна бири шу эдики, ҳукмдорлигининг ибтидосидан интиҳосигача унинг лашкари биронта черикдан мағлубиятга учрамади.

*Ҳафиз Абрў*

\* Амир Темур қанчадан-қанча даҳо ва хуфиёна фикру заковатга эга эди...

*Ибн Арабшоҳ*

\* ...Ҳоқони жаҳонгири Соҳибқирон, яъни (Амир) Темур Кўрагон, агарчи назм айтмоққа илтифот қилмайдурлар, аммо назм ва насрни андоқ хўб маҳал ва мавқеъда ўқубдурларким, анингдек бир байт ўқуғони минг байт айтқонча бор...

*Алишер Навоий*

\* Амир Темурга дўстлик ҳузур бағишлар эди. Ёқимлилиги туфайли дўстлар орттирди, уларни қадрлай билди, уларга дўст ҳисобланишдан ор қилмади. Зеро, Амир Темур дўстликка фақат дўстлик билангина жавоб бериш мумкинлигини яхши билар эди.

*Л. Лангле*

\* Амир Темур аввало Осиё кўмондони бўлган ва ўз даврининг удум ва одатлари бўйича ўзининг ғолибона кўшини ва қуролларидан фойдаланди.

*Херман Вамбери*

\* Амир Темур жонбоз бунёдкор эди, у ажойиб боғ-роғли муҳташам иншоотлар барпо этди, шаҳар ва қишлоқларни тиклади. Суғориш тизимлари барпо қилди ва таъмирлади, расмий тарих таъбирига кўра, у экин экишга яроқли бир қарич ерни ҳам бекор қўймасди.

*В.В.Бартольд*

\* Амир Темурнинг 1402 йилда Анқарада эришган ғалабаси фақат Осиё тарихидагина улкан аҳамиятга эга эмас. Амир Темур беихтиёр иккинчи марта Европа халқларига хизмат кўрсатди.

*А.Ю.Якубовский*

\* Мамлакатга кучли ҳокимият керак эди ва Амир Темур уни барпо этди. Амир Темур “аскарий ҳукмдор” бўлиб қолди.

*Л.Н.Гумилёв*

\* Амир Темур Доро, Искандар, Цезарь салоҳиятига тенг ёки уларнинг барини ортда қолдирувчи буюк ишни адо этиб ҳокимият тепасига келди ва кетма-кет ғалабага эришаверди.

*Тильман Хагель*

## **20. Амир Темур ҳақида даставвал қандай асл манбаларни ўқиш керак?**

1. “Темур тузуклари”, 1404 йил.
2. **Ғиёсиддин Али.** “Ҳиндистон ғазовоти кундалиги”, 1401 йил.
3. **Низомиддин Шомий.** “Зафарнома”, 1404 йил.  
(*Ушбу икки китобни Соҳибқироннинг ўзлари ўқиганлар*)
4. **Руи Гонсалес де Клавихо.** “Самарқандга Амир Темур саройига саёҳат” кундалиги(1403-1406)”.  
5. **Шарафиддин Али Яздий.** “Зафарнома”, 1425 йил.
6. **Ҳафиз Абрў.** “Зайли Зафарнома”.
7. **Фасиҳ Ҳавофий.** “Мужмали Фасиҳий” (солнома).

**XALQARO AMIR TEMUR JAMG'ARMASI**

**Muhammad Ali**

**AMIR TEMUR  
SOLNOMASI**

**Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy  
kutubxonasi nashriyoti  
Toshkent — 2008**

*Xalqaro Amir Temur jamg'armasi Ilmiy kengashi tomonidan nashrga  
tavsiya etilgan*

**Mas'ul muharrir:**

Abdusalom Umarov,  
sotsiologiya fanlari doktori.

*Muhtaram kitobxon!*

*Sohibqiron Amir Temur ulug' bobomiz bo'ladilar...*

*Shunday deymiz, ammo bobomiz hayotini, shaxsini yaxshi bilamizmi? U  
tug'ilgan, yashagan davr haqida tasavvurga egamizmi? Bobomiz kim  
bo'lganlar, qanday odam bo'lganlar, qanday fazilatleri bor? Bularni yaxshi  
o'rganish uchun tarix kitoblari bitilgan.*

*Ulug' insonlar haqida gapirish savobdir, bilib-bilmay gapirish gunohi  
azim bo'ladi, deydilar.*

*Biz ulug' bobomiz haqida aniq dalillar asosida ushbu Sohibqiron  
hayotining muxtasar solnomasini oqqa ko'chirib Siz -muhtaram kitobxonga  
havola qilishga jur'at etdik.*

© Alisher Navoiy nomidagi  
O'zbekiston Milliy kutubxonasi  
nashriyoti, 2008 yil.

## MUNDARIJA

Muqaddima.....	30
1. Amir Temur qachon va qaerda tug'ilgan?.....	31
2. Amir Temurning bolaligi.....	32
3. 1360 — 1370 yillarda Turkistondagi vaziyat.....	32
4. Mustaqil Turon davlatiga asos solinishi.....	33
5. "Sohibqiron" so'zining ma'nosi.....	34
6. Uch yillik, besh yillik, etti yillik yurishlar va ularning sabablari.....	34
7. Amir Temur diplomatiyasi.....	35
8. Kuch — adolatda.....	36
9. Amir Temur — bunyodkor.....	36
10. Amir Temur — ilm-fan homiysi.....	37
11. Amir Temur — buyuk sarkarda.....	39
12. Sohibqironning pirlari.....	40
13. Amir Temur farzandlari.....	41
14. Sohibqiron harami.....	42
15. Amir Temur sajiyasi, siyratiga chizgilar.....	43
16. Amir Temurning vafot etishi.....	44
17. Dunyo adabiyotida, musiqasida, tasviriy san'atida Amir Temur haqida yaratilgan ilk asarlar.....	45
18. Sohibqiron hikmatlaridan namunalar.....	46
19. Amir Temur haqida davlat va madaniyat arboblari fikrlaridan namunalar.....	47
20. Amir Temur haqida dastavval qanday asl manbalarni o'qish kerak?.....	50

## MUQADDIMA

Shukurlar bo'lsinkim, Mustaqillik tufayli buyuk bobomiz haqidagi haqiqatning ro'yobga chiqishi, tantanasi kun tartibiga qo'yildi. Bu millat tarixi, Vatan taqdiri uchun nihoyatda muhim edi. Takror ta'kidlash joizki, Sohibqiron Amir Temurni bizga qaytarib bergan, bu borada hormay-tolmay haqni qaror toptirgan zot ***O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovdir***. Ushbu ulug' xizmatlari uchun xalqimiz undan behad minnatdordir. Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch" nomli sermazmun kitobida xalqimizning toptalib kelgan milliy g'ururini yuksaltirish, Sohibqiron bobomizning muborak nomi, tarixiy siymosi, boy merosi va xotirasini tiklash yo'lida mamlakatimizda qo'yilgan qutlug' qadamlar to'g'risida batafsil hikoya qilingan. Ha, buyuk bobomiz haqidagi haqiqat tiklandi, adolat qaror topdi. 1996 yil O'zbekistonda "Amir Temur yili" deb ataldi. UNESKO qarori bilan Sohibqiron tavalludining 660 yilligi keng nishonlandi. Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda Amir Temurning muhtasham haykallari o'rnatildi. Bugun biz o'zining bemisl aqllu tafakkuri, shaxt shijoati bilan jahon taraqqiyotiga, tarix jarayoniga ulkan ta'sir ko'rsata olgan, madaniyatlar barpo bo'lishida xolis xizmat etgan siymo haqida baralla so'z deya olamiz. G'ururimiz, faxru iftixorimizni yashirib o'ltirmaymiz. Vatan uzra Sohibqiron Amir Temurning o'lmas ruhi keziy yurganini har lahza his etamiz.

Sohibqiron Amir Temur shaxsiyati jahon tarixida juda kam uchraydigan hodisadir. "Buyuk shaxslarni millat qayg'usi, xalq dardi yaratadi", degan edi Prezidentimiz. Chindan ham, millat qayg'usidan, xalq dardidan yaralgan bizning bobomizday ulug' zotning dunyoga kelishi zamon zarurati va talabiga aylandi, boshqacha aytganda, tarix va zamon o'z qahramonini o'zi jahon maydoniga olib kirdi.

## 1. Amir Temur qachon va qaerda tug'ilgan?

*Amir Temur*, Temurbek, to'liq aysak, Amir Temur ibn Amir Tarag'ay milodiy 1336 yil 9 aprel kuni Kesh(hozirgi Shahrisabz) yaqinidagi xushmanzara ko'hna Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ildi.

*Otasi — Amir Tarag'ay*, Tarag'aybek(tug'ilgan yili noma'lum - 1360) barlos qabilasining nufuzli oqsoqoli edi. O'zbek xalqi tarkibida to'qson ikki urug' borligini bilamiz. Barlos ana shu "to'qson ikki"ning biridir. Amir Tarag'ay Turkistonning o'sha paytdagi hukmdori Amir Qozog'on oldida ishonch qozongan hurmati bor beklardan hisoblanar, Chig'atoy ulusi beklari qurultoylariga qatnashib turardi. Harbiy ishlarga mayli yo'q, taqvodor musulmon, vaqtini darveshlar bilan o'tkazardi. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, "Tarag'aybek ulamo va sulaho va muttaqiylarga mushfiq va mehribon erdi va bularning majlisiga borur erdi..."

*Onasi — Tegin Xotun*, Takina begim, Takina Mohbegim (taxm.1318, Buxoro — 1353, Shahrisabz) Buxoro ulamolari peshvosi mavlono sadr ash-shari'a, ya'ni shariat qonunlarini sharhlovchi alloma Ubaydulloh al-Buxoriyning qizidir. Milodiy 1334 yil 16 yoshda Tarag'aybekka uzatilgan. Oradan ikki yil o'tgach, *Temurbek* tavallud topdi.

Onasi va otasi Shahrisabzda dafn etilgan. Amir Temur onasi xotirasiga balandligi etmish bir metr keladigan dunyoga mashhur Oqsaroy yodgorligini bunyod etdirdi.

Rivoyatlarga qaraganda, kunlardan bir kun Sohibqironning sakkizinchi bobosi Qochuvli bahodir tush ko'ribdi, tushida uning qo'ynidan bir yulduz uchib chiqib jamol ko'rgizibdi va shu zahotiyuq so'nibdi, keyin ikkinchisi, uchinchisi, to'rtinchisi yarqillab chiqibdi, bari so'naveribdi. Bu hol etti marta takrorlanibdi. Biroq sakkizinchi martasida katta porloq yulduz otilib chiqibdi-yu butun dunyoni yoritib yuboribdi! Mana shuni Amir Temur yulduzi deb taxmin qilinadi. Undan yana bir necha kichik yulduzlar paydo bo'libdi, katta porloq yulduz mag'rib chizig'iga bosh qo'yib so'ngandan keyin, kichik yulduzlar porlashda davom etibdilar...

## 2. Amir Temurning bolaligi

**B**olaligidanoq tabiatan og'ir-bosiq, zehni o'tkir, shoshilmay fikrlaydigan Temurbek dastavval maktabda saboq oldi, savodini chiqardi, ustozlar nazoratida kamon dastasini ushlab, o'q uzish, nayza tutish, otlarni saralay olish, shikorlar uyushtirish, chavandozlik va qilichbozlik qilish sirlarini yaxshilab o'rgandi. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Temurbek o'n ikki yoshida tengqurlari bilan "poshsho-vazir" o'ynashar ekan. Temurbek podsho bo'lar, qolganlarning har biriga bir "mansab" berilar, qamishdan yasalgan "gunohkor" odamni jazolab, "yurt" boshqarar ekanlar. O'n ikki yoshligidayoq yurt boshqarish havosini olishga intilish kuchli bo'lgan, niyatni katta qilgan.

Kichikligidanoq Qur'oni karimni yod olganligini aytishadi, qur'on o'qishda uning ovozi qorilarniki kabi salobatli va yoqimli bo'lgan.

## 3. 1360 — 1370 yillarda Turkistondagi vaziyat

**M**ilodiy 1358 yilda Turkiston(Movarounnahr) hukmdori Amir Qozog'on o'ldirilgandan keyin boshboshdoqlik avj olib ketdi. Tarixchi Xondamirning xabar berishicha, mamlakat parchalanib o'nga yaqin bekliklarga bo'linib ketgan, hukmdorlar o'zaro nizolar, janglar bilan ovora, birlashishni o'ylamasdilar. Shu sababdan Mo'g'uliston xoni Tug'luq Temurxon 1360 — 1361 yillarda yagona hokimi yo'q yurtimizga bosqin uyushtirganda unga bas keladigan kuch topilmadi.

Amir Temur ana shunday vaziyatda tarix maydoniga kirib keldi. Xudo kelajakda ulug' saltanat barpo qilishni uning ko'ngliga jo etgan edi. Buning uchun mamlakatni birlashtirish lozim bo'lardi. U o'zboshimcha amirlar boshini bir joyga qovushtira oldi. Og'ir kurashlardan keyin milodiy 1370 yilda Amir Temur davlat boshiga keldi. Turkiston tarixida *1370 yil 9 apreldan* boshlab mutlaqo yangi sahifalar boshlandi.



#### 4. Mustaqil Turon davlatiga asos solinishi

**Sohibqiron** Amir Temur Qashqar, Ettisuv, Turkiston va Xorazmning bir qismidan iborat *Chig'atoy ulusining* vorisi sifatida maydonga chiqdi va ulus erlariga to'liq egalik qilishni o'zining qonuniy huquqi deb hisobladi. O'sha paytdagi taomilga ko'ra, davlatga Chingizxon asos solgan, shuning uchun faqat uning avlodidan bo'lganlargina xon atalishga loyiq ko'rilardi. Amir Temur davlat boshiga kelishdan oldin chingiziy Suyurg'atmishxonni nomigagina xon qilib ko'tardi, soxta obro'lar ketidan quvishga ehtiyoji bo'lmagan Sohibqiron o'zini xon deb atamadi, chunki u xon avlodidan emas, balki oddiy xalq ichidan chiqqan qahramon edi. Samarqandni Turon saltanatining poytaxti deb belgiladi, 1391 yilda To'xtamishxon bilan jangga borayotib, Dashti Qipchoqda ulkan toshga xotira satrlarini o'ydirib yozdirganda, o'zini "*Turon sultoni*" deb atadi.

Birinchi qadamlar parchalanib ketgan yurtni — Turon mamlakatini birlashtirishdan boshlandi. Bu ishni amalga oshirish uchun Jeta(boshqa nomi Mo'g'uliston)ga besh marta, Xorazmga besh marta yurish qilishga to'g'ri keldi. Parokanda mustamlaka yurtimiz yaxlitlik maqomiga ega bo'lib, ozodlikka erishdi. Bu tariximizdagi diqqatga sazovor ulkan voqealardan biridir.

O'ttiz besh yil (1370 — 1405) hukm surgan Sohibqiron Amir Temur Markaziy Osiyo hududlarini yagona markazlashgan davlatga birlashtirdi, Hind va Gangadan to Orol dengizigacha, Tyan-Shandan to Bosfor'gacha ulkan imperiya barpo etdi.

Amir Temur, eng avvalo, mustaqil ulkan Turon davlatini tuzgan vatanparvar, buyuk davlat arbobidir, Vatanimizni mo'g'ul bosqinchilaridan ozod etgan xalq qahramonidir. U mustabidlarga qarshi kurash va mustaqil davlat bunyod etish o'zining zimmasida turgan buyuk tarixiy vatanparvarlik burchi ekanligini chuqur anglab etdi. Prezident Islom Karimovning: "*Amir Temurni anglash — o'zligimizni anglash demakdir*" degan so'zlari zamirida ana shunday teran ma'no mujassamdir.

## 5. “Sohibqiron” so‘zining ma‘nosi

*Sohibqiron* so‘zining arabcha saodatli, zafarli, g‘olib ma‘nolari bor. Ilmi nujum(astrologiya)da va afsonalarda Zuhra(Venera) — do‘stlik va mehru muhabbat tug‘yonlarini in‘om aylaguvchi, Mushtariy(Yupiter) — omadu iqbol, muzaffariyatu shodiyonalar sayyorasi deb ta‘riflanadi. Shu ikki sayyoraning bir burjda uchrashgan vaqti saodatli lahzalardur, uni qiron deyдилar, shunday vaqtda tug‘ilgan bola o‘sha qiron sohibi hisoblanadi. Bunday bolaning baxtli, ulug‘ martabalar egasi bo‘lishi oldindan bashorat etiladi. Sharq mamlakatlarida falakiqtidor hukmdorlarga beriladigan sharafli unvon. Amir Temur Ko‘ragon ham shu unvonga musharraf bo‘lgan.

## 6. Uch yillik, besh yillik, etti yillik yurishlar va ularning sabablari

Amir Temur urushning aytgani-aytgan, degani-degan qattol bir zamonda yashadi, qilichu nayzaga suyangan bu zamonning hech kimga bo‘ysunmaydigan o‘z qonunlari bor edi. Ularga rioya qilmaslik yoki chetlab o‘tishlik mumkin emasdi. Shuni ta‘kidlash joizki Sohibqiron xudo izmidan chiqmaydigan bandalardan edi, hech qachon birinchi bo‘lib urush boshlamasdi, savashishlarni yoqtirmasdi. Uning yurishlari barchasi zaruratdan kelib chiqardi. Eng avvalo, u urushning oldini olish chorasini izlardi. Ayrim hollarda, qaysidir mamlakatda zulm ortib izdan chiqib ketgan bo‘lsa, u joyning ulug‘lari Sohibqiron Amir Temurga ko‘mak so‘rab murojaat qilishardi. Masalan, Eron, Iroq va h.k. Amir Temur o‘z “Tuzuklar”ida davlat ishlarining to‘qqiz ulushini kengash(diplomatiya)ga ajratgani, bir ulushini qilichga qoldirganini yozgan. U umr bo‘yi bunga rioya qildi. Muxolif mamlakatga takror-takror elchilar yuborar, quda-andachilikni yo‘lga qo‘yishga tirishar, qarindoshchilikni rivojlantirish yo‘llarini izlardi. Buning yorqin misoli — Xorazmning go‘zal malikasi Xonzoda xonimning Turon saltanati valiahdi amirzoda Jahongir Mirzoga uzatilishi edi.

Amir Temurning “uch yillik”(1386-1388), “besh yillik” (1392 — 1396), “yetti yillik”(1399-1404) yurishlari tarixdan ma‘lum. Bu

yurishlar zamirida Buyuk Ipak yo'liga egalik qilish uchun kurashlar ham yotadi. Savdo yo'llari davlatga katta daromad keltirishdan tashqari, xalqaro siyosiy maydonda mavqe, obro'-martabani yuksak darajaga ko'taradi.

Amir Temur yurishlari, urushlar, albatta, o'z asoratlarini qoldirdi, lekin ularning jahon tarixida ijobiy tomonlari borligi ham haqiqat.

Sohibqironning yurishlari Xitoyda Min sulolasi davlat boshiga kelganda mo'g'ullarning Xitoyga solayotgan xavfini bartaraf etdi...

Oltin O'rda hoqoni To'xtamishxon bilan 1391, 1395 yillarda olib borilgan ulkan janglar Rossiyani mo'g'ullar zulmidan xalos qildi, rus xalqiga markazlashgan davlat tuzish imkoniyatini yaratdi.

Amir Temurning Usmonlilar impriyasi ustidan qozongan g'alabasi Evropani usmonlilar mustamlakasidan qutqarib qoldi, uni Evropa xaloskoriga aylantirdi, Vizantiya imperiyasi umriga yarim asr umr qo'shdi. Francuz tarixchisi Rene Grusse XX asr boshlarida: «Amir Temurning Boyazid ustidan g'alabasi xristian olamini asrab qoldi», deb yozgan edi.

## 7. Amir Temur diplomatiyasi

Amir Temur uzoqni ko'raoladigan mohir diplomat sifatidatarixda chuqur iz qoldirdi. O'sha yillarda dunyoning chekkasi hisoblangan Ispaniya mamlakati (u paytda Amerika kashf etilishiga hali yuz yillar bor edi) qiroli Enriko III, Franciya qiroli Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV saroylariga aloqalar bog'lash uchun elchilar yo'lladi, maktublar yozdi, maktublar oldi. O'z navbatida ispan, fransuz, ingliz, xitoy va boshqa xorijiy mamlakatlar elchilari uning saroyiga tez-tez tashrif buyurib turishar edi.

U ulkan davlat arbobi sifatida Evropa va Osiyo o'rtasida o'zaro aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladigan yagona makon yaratish choralarini qidirdi. Bunda o'zaro savdo-iqtisodiy munosabatlar o'rnatilishiga katta e'tibor berdi. Jahonning nufuzli davlatlari bilan yaxshi aloqalarni yo'lga qo'ydi. Bu ma'noda bir tarafdin — Xitoy, Hindiston, ikkinchi tarafdin — Fransiya, Angliya, shuningdek, usmonlilar imperiyasi, Ispaniya, Italiya, Misr va boshqa davlatlarni aytib o'tish mumkin. Sohibqiron faoliyatining jahonshumulligi ham shundan namoyondir.

## 8. Kuch — adolatda

Sharqda “odil podsho” tushunchasi qadim-qadimdan mavjud va xalq ana shunday podshoni hamisha orzu qilib kelgan. Sohibqiron Amir Temur ana shunday podsho bo’lishga intildi. “Kuch - adolatda” so’zlari Amir Temur uzugiga o’yib yozilgan edi va davlat muhrida ham aks etgan edi. “Mamlakat zulmga chidashi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi”, deb yozgandi Amir Temur o’z “Tuzuklar”ida. Bu — saltanat shiori. Sohibqiron bunga qattiq amal qilardi. Adolatning kuchi shunchalar yuksak ediki, agar mamlakatda biror odam bir tovoq oltin yo kumushni boshiga qo’yib, mag’ribdan mashriqqacha borsa, hech kim unga qo’l cho’zmas, oltin yo kumushdan bittasi ham kamaymasdi.

U har qadamda, xoh o’zining farzandlari bo’lsin, xoh boshqa fuqaro — barchaga birday adolat ko’zi bilan qarardi. Safarlardan qaytib kelganda, shaxsan o’zi bozorni tekshirar, agar qassobu baqqol, novvoy va hokazolar foyda topaman, deb narx-navoni oshirib yuborgan bo’lsalar, adolat rusumi buzilganini ko’rsa, el oldida ayovsiz o’sha gunohkorning jazosini berardi. Yolg’on gapni yomon ko’rardi. Adolat tamoyillarini buzgani uchun, o’g’li amirzoda Mironshoh, nabiralari amirzoda Pir Muhammad, Sulton Husayn Mirzolar jazolanganlari tarix kitoblaridan ma’lum. Muarrir Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”da Amir Temurning 1366 yilda, hali davlat taxtiga chiqmasdan to’rt yil avval aytgan shunday so’zlarini keltiradi: “Qaysi bir podshoh o’z ishini g’addorlik va bevafolik asosiga qursa, kishilarga ozor berish va halok qilishga oshiqsa, uning davlati chayqalib, qarorsizlikka yuz tutadi... Biz o’z saltanatimizni *odamlarga e’tibor berish va ularni himoya qilish* asosiga qurayotganligimiz sababli ularni yupantirib, xotirjam qilamiz...”

Odamlarga, demak *xalqqa e’tibor berish va himoya qilish* - Sohibqiron adolatining bosh o’zagini tashkil qilar edi.

Hamma joyda amalda bo’lgan “Kuch — adolatda” shiori butun Turon davlati hududida axloqiy va ma’naviy mezonga aylandi.

## 9. Amir Temur — bunyodkor

Amir Temur qurish, yaratish mentaliteti bo’lgan xalqning farzandi, tabiatan bunyodkor bo’lib tug’ilgan monandi yo’q zot edi.

“...Amr etdimki, - deb yozadi Amir Temur “Tuzuklar”da, - katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsunlar, faqiru miskinlarga langarxona(musofirxona) solsunlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsunlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasunlar. Har bir shaharda dorul-amorat(hukmdor saroyi) va dor ul-adolat(adolat saroyi) qursunlar...”

Bunyodkorlik Sohibqiron davrida davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan edi, deyish mumkin. Amir Temur faqat o'z mamlakatidagina emas, balki boshqa yurtlarda ham bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgani buning dalilidir. Dastavval saltanat poytaxti Samarqandni dunyoning eng obod shahariga aylantirdi, ulug'vorligini ko'rsatish uchun, atrofida Damashq, Bag'dod, Misr, Sheroz, Sultoniya kabi dunyoning mashhur shaharlari nomlari bilan atalgan, bog'-rog'larga ko'milgan qishloqlar barpo qildirdi.

Mamlakatda yo'llar kengaytirildi, ko'priklar solindi, rabotlar tiklandi, bozorlar orostalandi, binolar qad ko'tardi, xiyobonlar barpo etildi, bog'lar yashnadi. Bu bog'lar haqida ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo o'z kundaliklarida zavq-shavq bilan qalam tebratgan. Ularning ichida Gulbog', Bog'i Dilkusho, Bog'i Chinor, Bog'i Nav va boshqa bog'lar nomlari bor. Samarqandda Ko'ksaroy, Amir Temur Jome masjidi, Bibixonim madrasasi, masjidi, Qusam ibn Abbos me'moriy majmui, Amir Temur maqbarasi, Shahrisabzda Dorut-tilovat majmui, muhtasham Oqsaroy, Turkiston shahridagi Xoja Ahmad Yassaviy xonaqoh-maqbarasi, Toshkent yaqinida Zangi ota maqbarasi, Nahri Barlos arig'i, Kobul atroflari, Farg'ona vodiysi, Murg'ob vodiysidagi erlarga, Ozarbayjondagi Mug'on cho'llariga suv chiqarilishi, Shohruhiya, Baylaqon shaharlarining bunyod etilishi, Tabriz, Bag'dod va Gurganj shaharlarining qayta tiklanishi...

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Sharafiddin Ali Yazdiyning: “Sohibqiron har erdakim, imoratqa qobil er ko'rsa erdi, ul erda albatta bir imorat solur erdi...” degan so'zlari zinhor mubolag'a emas.

## 10. Amir Temur — ilm-fan homiysi

Amir Temurning ilm-fan homiysi sifatidagi xizmatlari tahsinlarga sazovordir. Qaysi mamlakatdagi xotirjamlik, tinchlik, dorilomonlik

bo'lsa, gul ekish, ekin tikish, niholni parvarish etish, uy qurish, ilm o'rganish, kitob yozish, ashula aytish, bog'lar barpo etish imkoni tug'iladi, bir so'z bilan aytganda, insonlar qalbida ma'naviyat chechlari yaproq yozadi. Va tabiiyki, mamlakatda ilm va fanni rivojlanishi uchun ana shunday xotirjamlik va moddiy ta'minlanganlik bo'lishi kerak. Amir Temur Turon saltanatida ilm-fanning rivojlanishi, unib-o'sishi, kamol topishiga qulay sharoitlar, ulkan imkoniyatlar yaratib berdi.

Amir Temur, ko'p mashhur muarrixlar ta'kidlaganlaridek, ilmning qadriga etadigan, uni rivojlantirishga astoydil bel bog'lagan, dunyoning eng yetuk olimlari, tarixchilari bilan bemaolol suhbatlasha oladigan donishmand hukmdor edi. Ilm-fanga qiziqish Amir Temurning xonadonidan boshlangan edi desak to'g'riroq bo'ladi. Sohibqiron xonadonida farzandlar(shahzodalar, malikalar)ga ilm-fanning turli sohalaridan ko'p saboqlar berilar, madrasalarda tahsil olishlar davom etdirilardi. Masalan, Mironshoh Mirzo uchun maxsus Ibn al-Asirning "Al-komil fit-tarix" (Mukammal tarix) kitobi tarjima qilib berilgan edi. Sohibqiron harakatlari tufayli, uning avlodlari ichida Muhammad Sulton, Ulug'bek Mirzo, Ibrohim Sulton, Boysunqur Mirzo, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ko'chkunchixon, Komron Mirzo, Gulbadanbegim, Zebunniso kabi shoirlar, olimlar, muarrixlar, xattotlar, homiyar, ma'naviyat va ma'rifat jonkuyarlari bor bo'lib, ular ilm-fan, ma'naviyatning qadriga etadigan ajoyib insonlar bo'lib etishdi. Ularning sa'y-harakatlari bilan madaniyatimiz yuksak darajalarga erishdi. Misol uchun, Ulug'bek Mirzoning astronomiya maktabi aynan Samarqandda yaratildi. Zamonaning ilg'or rasadxonasi barpo etildi. 1018 ta yulduz ta'rifini o'z ichiga olgan "Ziji jadidi Ko'ragoniy" jadvali jahon faniga ulkan hissa bo'lib qo'shildi. "To'rt ulus tarixi" asari esa xalqimiz tarixini anglab etishda katta ahamiyatga ega. Sohibqiron Amir Temur davri tarixini to'liq va ishonarli yoritib bergan Sharafiddin Ali Yazdiyning fundamental "Zafarnoma"(1425) asari Sohibqironning nabirasi Sheroz hokimi, shoir va xattot Ibrohim Sultonning rahbarligi, fidoyiligi va homiyligi ostida dunyoga keldi. 1519 yilda Ulug'bek Mirzoning nabirasi Ko'chkunchixon topshirig'i bilan mazkur "Zafarnoma" va Rashiduddin "Jome ut-tavorix" asarlari o'zbek tiliga tarjima qilindi.

Qolaversa, jahon adabiyotining buyuk namoyondalaridan hisoblangan Alisher Navoiyning ijodi, Lutfiy va Husayn Boyqarolar she'riyati, allomalar Qozizoda Rumiy va Ali Qushchi asarlari,

Kamoliddin Behzodning durdona miniatyura rasmlari, Zahiriddin Muhammad Boburning bebaho “Boburnoma”si, go’zal she’riyati, ilmiy asarlari, muarrixlar G’iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, Muiniddin Natanziy, Hafizi Abro’, Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamirlarning solnomalari — barcha-barchasi Temuriylar davrining mahsulidir.

## 11. Amir Temur — buyuk sarkarda

**Amir** Temur jahonning to’rtta mashhur sarkardalaridan biri, kuragi erga tegmagan ulug’ lashkarboshi xudo bergan salohiyatini to’la-to’kis namoyon eta olgan, monandi yo’q buyuk armiya qo’mondoni edi. Jangohlar san’ati, urush yo’llari, lashkar tutish qoidasi, saflar rasmi-rusumi haqida Sohibqironning “Temur tuzuklari” nomli nodir kitobida batafsil yoritilgan.

Milodiy 1365 yilda Sirdaryo bo’yida Chinoz yonida mo’g’ullar bilan bo’lgan mashhur “Loy jangi”da Amir Husayn boshliq Turon cherigi(Amir Temur lashkarboshi edi) mag’lub bo’ldi. Bu 29 yoshli Amir Temurning umrida birinchi va so’nggi mag’lubiyati edi.

1366 yilda Qarshida Temurbek bor-yo’g’i 243 kishi bilan 12 ming kishilik dushmanga qarshi jang qildi va tangrining inoyati-yu sarkardalik salohiyati bilan muzaffariyat tug’ini baland ko’tardi.

1368 yilda Badaxshonda qo’li baland kelgan dushman Sohibqiron askarlarining ko’pini qirib tashladi va 130 kishini asir qildi. Yonida bor-yo’g’i 13 navkar bilan qolgan Amir Temur mardlarcha Dobon tog’i tepasiga chiqib yo’lni to’sdi va ko’p jangu chorasiz qonli urinishlar evaziga o’z askarlarini dushmandan qutqarib oldi. Keyinchalik Amir Temur o’sha jangni eslab: “Ko’p janglar qildim va ko’p voqealarni boshdan kechirdimu ammo bu jangdan qattig’ini ko’rmadim...” degan edi.

Sohibqiron dunyoning 27 mamlakatini musaxxar qildi. Taxminan mingdan ortiq jang o’tkazdi, ularda zafar hamisha Sohibqiron tomonida bo’ldi.

Uning dunyoni lol qoldirgan eng mashhur va yirik janglari quyidagilardir:

**1391 yil 18 iyun** — Kandircha daryosi bo’yida (Samara viloyati) Oltin O’rda xoni To’xtamishxon ustidan qozonilgan g’alaba. Har

tomondan 200 mingdan ortiq askarlar ishtirok etgan. Bu g'alaba Turon davlati mustaqilligini yana ham mustahkamladi.

**1395 yil 15 aprel** — Oltin O'rda xoni To'xtamishxonga qarshi ikkinchi jang Terek daryosi bo'yida yuz berdi. Turon tomonidan 250 ming, Oltin O'rda tomonidan taxminan 450 — 500 ming sipoh qatnashdi. Jang Amir Temurning uzil-kesil g'alabasi bilan qaror topdi.

**1402 yil 20 iyul** — Anqara yonida Amir Temur va usmonlilar imperatori Yildirim Boyazid o'rtasida zamonaning eng buyuk jangi bo'lib o'tdi. Amir Temur qo'shini taxminan 200 ming, Yildirim Boyazid lashkari bir yuz oltmish mingdan iborat edi. Savashish Turon sultoni Amir Temurning buyuk g'alabasi bilan yakunlandi.

## 12. Sohibqironning pirlari

**Amir Temurning** yoshlikdanoq mashhur din ulamolari va shayxlarga e'tiqodlari baland bo'lib, buni padari buzrukvori Amir Tarag'aydan o'rgangan edi.

Sohibqironning bir necha pirlari bo'lgan, ularni ikki guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga *ruhoniyyatli pirlar*, ya'ni Sohibqiron tug'ilgunga qadar yashab o'tishgan tabarruk zotlar — Turkiston mulking shayx ul-mashoyixi Xoja Ahmad Yassaviy, Sulton Burhoniddin Qilich, Shayx Nuriddin Basir(Qutbi Chahordahum), Shayx Burhoniddin Sog'arjiy va Shayx Safiuddin Yoqub Ardabiliylardir. Sohibqironning mazkur zotlar ruhlariga ehtiromlar ko'rgizib, har biriga alohida maqbaralar tiklaganliklari, avlodlarini e'zozlab kelganliklari o'ziga pir tutganining isboti bo'la oladi.

1397 yil kuz oylarida Amir Temur Toshkent sari ravona bo'ldi, undan o'tib Yassiga bordi va Xoja Ahmad Yassaviy mozorini ziyorat qildi. "Bu aziz Muhammad Hanifa o'g'lonlaridin turur, alayhi va ala olihi vassalom", — deydi Sohibqiron pir turbatini tavof aylar ekan. "Buyurdikim, — deb yozadi Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" da, - ul mozorig'a ustiga imorati oliy soldilar va bir ulug' toq (gumbaz) bog'ladilarkim, ko'k bila so'zlashur erdi..."

Ikkinchi guruhga Sohibqironning zamondoshlari, Ulug' Amir bevosita *e'tiqod etgan va irodat yo'lini bergan pirlar* — Shayx Shamsiddin Kulol, Shayx Zayniddin Abu Bakr Toybodyi, Mir Sayyid Baraka



janoblari hisoblanadilar. Shayx Zayniddin Abu Bakr Toybodiy Amir Temurga “Kuch — adolatda” soʻzlari oʻyib yozilgan tillo uzuk, Mir Sayyid Baraka esa birinchi uchrashuvdayoq saltanat timsoli boʻlgan nogʻora va bayroq tuhfa qilgan edilar. Oʻzining ruhiy madadi, koʻmagi bilan hamisha Sohibqironga kamarbasta boʻlgan Mir Sayyid Baraka to soʻnggi nafasgacha Sohibqiron Amir Temur bilan birga umrguzronlik qildi.

Ushbu pirlar haqida tarixiy manbalarda (“Temur tuzuklari”, Nizomiddin Shomiy. “Zafarnoma”, Sharafiddin Ali Yazdiy. “Zafarnoma”, Ibn Arabshoh “Amir Temur tarixi”, Fasih Havofiy “Mujmali Fasihiy”, Hafizi Abroʻ “Zubdat ut-tavorix” va hokazo) maʼlumotlar keltirilgan.

### 13. Amir Temur farzandlari

**Alloh taolo** Sohibqironga koʻp farzandlar ato etdi. El koriga yaraydigan boʻlib voyaga etganlari — oltita toʻrt oʻgʻil, ikki qiz.

*Toʻngʻich oʻgʻil* — 1356 yilda Turmish oqa degan xotinidan tugʻilgan **Jahongir Mirzo**, valiahd edi, 1376 yilda avj gurkirab turgan yigirma yoshida betoblikdan dunyodan koʻz yumdi. Undan ikki oʻgʻil — Muhammad Sulton bilan Pir Muhammad Jahongirlar qolganlar.

Qabri Shahrisabzda.

*Ikkinchi oʻgʻil* — 1356 yilda Toʻlun oqa degan maʼshuqasi (kanizagi)dan tugʻilgan **Umarshayx Mirzo**. 1394 yilda halok boʻlgan. Oʻttiz sakkiz yil umr koʻrgan. Olti oʻgʻil qolgan: Pir Muhammad Mirzo, Rustam Mirzo, Iskandar Mirzo, Ahmad Mirzo, Sayid Ahmad Mirzo, Boyqaro Mirzo.

Qabri Shahrisabzda.

*Uchinchi oʻgʻil* — 1366 yilda Mengli bika oqa degan maʼshuqasidan tugʻilgan **Mironshoh Mirzo**. 1408 yilda halok boʻlgan. Qirq ikki yil umr koʻrgan. Olti oʻgʻil qolgan: Abu Bakr Mirzo, Umar Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Sulton Muhammad Mirzo, Iyjal Mirzo, Suyurgʻatmish Mirzo.

Qabri Samarqandda, Amir Temur maqbarasida.

*To'rtinchi o'g'il* — 1377 yilda Tag'oy Turkon oqa degan ma'shuqasidan tug'ilgan **Shohruh Mirzo**. Yetmish yoshga kirib 1447 yilda vafot etgan. Etti o'g'il qolgan: Ulug'bek Mirzo, Ibrohim Sulton Mirzo, Boysunqur Mirzo, Suyurg'atmish Mirzo, Muhammad Jo'ki Mirzo, Jon O'g'lon, Muhammad Yoriy Mirzo. Ulug'bek Mirzodan boshqa barcha o'g'illar otasidan avval dunyodan o'tganlar.

Qabri Samarqandda, Amir Temur maqbarasida.

*Birinchi qizi - Oqa Begi xonim* 1359 yilda Turmish oqa degan xotinidan tug'ilgan. Muhammadbek ibn Musoga uzatganlar, bu nikohdan Sulton Husayn Mirzo tug'ilgan. 1382 yilda yigirma uch yoshida betob bo'lib olamdan ko'z yumgan.

Qabri Shahrisabzda.

*Ikkinchi qizi — Sulton Baxt begim* 1362 yilda Uljoy Turkon oqa degan xotinidan tug'ilgan. Amir Muhammad Mirakka uzatadilar, lekin ko'rnamak kuyov Sohibqironga qarshi tig' ko'tarib chiqadi va jangda halok bo'ladi.

Ikkinchi marta Amir Sulaymonshohga turmushga chiqadi.

1430 yilda vafot etgan.

## 14. Sohibqiron harami

Amir Temurning birinchi xotini Amir Joku barlos qizi **Turmish oqa**, ikkinchi xotini Amir Husaynning singlisi **Uljoy Turkon oqa** edi.

1370 yilda Amir Temur davlat boshiga kelgach, Amir Husayn haramidan bo'lgan chingiziy Qozon Sultonxon qizi **Saroymulkxonimga** uylandi va Ko'ragon — kuyov bo'ldi.

Tarixchilar bergan ma'lumotlarga qaraganda, Sohibqironning yana **Dilshod oqa, Tuman oqa, Cho'lpon Mulk oqa, To'kal xonim** degan go'zal xotinlari bo'lgan. Tarixchilar Xondamirning "Nasabnoma"si, noma'lum muallifning "Muizz al-ansob" (XV asr) asari va Turg'un Fayzievning "Temuriylar shajarasi"da Amir Temurning harami va avlodlari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

## 15. Amir Temur sajiyasi, siyratiga chizgilar

**S**ohibqiron Amir Temurni o'z ko'zi bilan ko'rgan arab tarixchisi Ibn Arabshoh "Amir Temur tarixi" asarida shunday yozadi:

"Amir Temur ...tengi yo'q fe'l-atvorli, teran mulohazali, uning tafakkur dengizining qa'ri yo'q. Amir Temur baland qadli, uzun bo'yli, tik qomatli, qadimiy pahlavonlar avlodidan bo'lib, keng peshonali, katta boshli, g'oyatda kuchli va salobatli, bo'la, rangi oqu qizil yuzli, dog'siz, qo'l-oyoqlari baquvvat, elkalari keng, barmoqlari yo'g'on, poychalari semiz, sersoqol, o'ng oyoq-qo'li cho'loq va shol, ikki ko'zi bamisoli ikki shamdek bo'lsa-da, shodligi bilinmas, ovozi yo'g'on edi; u o'limdan qo'rqmas, yoshi etmishga etgan bo'lsa-da, iztirobsiz, vazmin. Badani to'la va pishiq, xuddi zich(qalin) tosh misoli qattiq edi. U hazil-mazax, yolg'onni yoqtirmas, o'yin-kulgi-yu ko'ngilxushlikka maylsiz, garchi so'zda o'ziga ozor etadigan biror narsa bo'lsa hamki, sadoqat unga yoqar edi; u bo'lib o'tgan ishga aziyat chekmas va o'ziga hosil bo'ladigan yutuqdan shodlanmas edi... Ko'pincha uning majlisida uyatsiz so'zlar, qon to'kish, asir olish, naqbu g'orat qilish va haram(haqiga) haqorat gaplar bo'lmasdi. U bexato(nishonga urguvchi) fikrli, ajoyib farosatli, mislsiz darajada baxtli, ulug'vorligi o'ziga muvofiq, qat'iy azm bilan so'zlovchi, boshiga kulfat tushganda ham haqqo'y kishi edi..."

Amir Temur sayidu shariflarni hurmat qilar, ulamo-yu fozillarga yuksak izzat ko'rsatar, qadriga etar, qo'lidan bir ish keladigan jamiki usta-hunarmandlardan, kasb egalaridan mehrini darig' tutmasdi.

Tarixchilarning guvohlik berishlaricha, dunyoning eng etuk olimlari, tarixchilari uning suhbatdoshlari bo'lishgan, tarix haqidagi kitoblarni o'qishni va u haqdagi hikoyalarni tinglashni nihoyatda xush ko'rgan. Saltanat yumushlaridan xalos bo'lgach, har oqshom ulamo va fozillarni huzuriga chorlab, fan va dinning nozik jihatlaridan suhbatlar qurar, bahslar uyushtirar, teran savollar berib olimlarni o'ylantirib qo'yardi. Chuqur bilimi-yu zukkoligi, turfa davlatlar va ularning podshohlari tarixini yaxshi bilishi bilan Ibn Xaldunday ulkan olimni hayratga solganini aytadilar.

Ahdida qat'iy turadigan, ishonuvchan, kechirimli, hayotga jo'shqin mehr qo'ygan, zavq-shavqqa tashna, hamma narsadan xabardor,

g'oyat qattiqqo'l, hech narsa rahna sololmaydigan kuchli irodaga ega Sohibqiron shikor qilishni, shatranj(shaxmat) o'ynashni yaxshi ko'rar, lekin har bir shikorga, shatranj o'yiniga avvalo bo'lajak janglar mashqi sifatida qarardi.

Donishmand ota, suyuqli yor, ahli ayoliga mehribon, meyorini bilgan, nafsni jilovlay olish qudratiga ega bo'lgan Sohibqiron o'z vaqtini ayshu ishrat bilan o'tkazishiga himmati qo'ymas, bir ishni boshlasa, oxiriga etkazmaguncha tinchimas edi.

Amir Temur yigirma uch yoshlarida qamoqqa tushib qolganida, qutulib ketishdan umidini uzib, dunyodan ko'ngli sovidi. Ittifoqo, shu palla darchadan tashqariga chiqmoqchi bo'lib devorda o'rmalab ketayotgan chumoliga ko'zi tushdi va kuzata boshladi. Chumoli darchaga etay deganda pastga yumalab tushib ketdi. U hech narsa bo'lmaganday yana yuqoriga intildi. Yana qulab tushdi. Bu hol ko'p takrorlandi, ammo chumoli o'rmalayverdi, o'rmalayverdi, tinmadi, oxiri darchadan tashqariga chiqib ketishga erishdi!

Temurbek o'z-o'ziga dedi: "Yo rab! Men shu chumolichalik ham bo'lolmaymanmu?!.." Bu narsa unga qattiq ta'sir qildi-yu g'ayrat o'tini alangalantirdi. U tadbir ishlatib qamoqdan qutulib ketdi. Bu voqea umrbod uning esidan chiqmadi.

Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishiga qaraganda, "Bu podshohi komkor og'zini jog'ir sori eltmadi va bir dam itoatu ibodat fikridin o'zga kechmadi. Va muttasil ishi Qur'on o'qumoq va faqiru muskinning g'amini emoaq edi..."

## 16. Amir Temurning vafot etishi

Sohibqiron Amir Temur Xitoy safariga borayotib 1405 yil 11 fevral kuni O'tror shahriga etganda qattiq og'rib qoldi va isitmasi ko'tarila boshladi. Kasallik kundan-kun kuchayardi, ammo Sohibqironning es-hushi, aqli joyida edi. Sohibqiron o'zining barcha gunohlaridan tavba qildi. U haram ahlini va ulug' beklarni huzuriga chorlab vasiyatga og'iz ochdi: "...Hazrat Haqqdin umidim borki, agarchi gunohim ko'b turur, ammo bu jihatdin menga rahmat qilg'aykim, zolimlarning eliklarin mazlumlardin qisqa qilibdurmen. Va qo'ymadimkim, mening davrimda qaviydan(zo'ravondan) zaif kuch

g'oyat qattiqqo'l, hech narsa rahna sololmaydigan kuchli irodaga ega Sohibqiron shikor qilishni, shatranj(shaxmat) o'ynashni yaxshi ko'rar, lekin har bir shikorga, shatranj o'yiniga avvalo bo'lajak janglar mashqi sifatida qarardi.

Donishmand ota, suyuqli yor, ahli ayoliga mehribon, meyorini bilgan, nafsni jilovlay olish qudratiga ega bo'lgan Sohibqiron o'z vaqtini ayshu ishrat bilan o'tkazishiga himmati qo'ymas, bir ishni boshlasa, oxiriga etkazmaguncha tinchimas edi.

Amir Temur yigirma uch yoshlarida qamoqqa tushib qolganida, qutulib ketishdan umidini uzib, dunyodan ko'ngli sovidi. Ittifoqo, shu palla darchadan tashqariga chiqmoqchi bo'lib devorda o'rmalab ketayotgan chumoliga ko'zi tushdi va kuzata boshladi. Chumoli darchaga etay deganda pastga yumalab tushib ketdi. U hech narsa bo'lmaganday yana yuqoriga intildi. Yana qulab tushdi. Bu hol ko'p takrorlandi, ammo chumoli o'rmalayverdi, o'rmalayverdi, tinmadi, oxiri darchadan tashqariga chiqib ketishga erishdi!

Temurbek o'z-o'ziga dedi: "Yo rab! Men shu chumolichalik ham bo'lolmaymanmu?!.." Bu narsa unga qattiq ta'sir qildi-yu g'ayrat o'tini alangalantirdi. U tadbir ishlatib qamoqdan qutilib ketdi. Bu voqea umrbod uning esidan chiqmadi.

Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishiga qaraganda, "Bu podshohi komkor og'zini jog'ir sori eltmadi va bir dam itoatu ibodat fikridin o'zga kechmadi. Va muttasil ishi Qur'on o'qumoq va faqiru miskinining g'amini emoaq edi..."

## 16. Amir Temurning vafot etishi

Sohibqiron Amir Temur Xitoy safariga borayotib 1405 yil 11 fevral kuni O'tror shahriga etganda qattiq og'rib qoldi va isitmasi ko'tarila boshladi. Kasallik kundan-kun kuchayardi, ammo Sohibqironning es-hushi, aqli joyida edi. Sohibqiron o'zining barcha gunohlaridan tavba qildi. U haram ahlini va ulug' beklarni huzuriga chorlab vasiyatga og'iz ochdi: "...Hazrat Haqqdin umidim borki, agarchi gunohim ko'b turur, ammo bu jihatdin menga rahmat qilg'aykim, zolimlarning eliklarin mazlumlardin qisqa qilibdurmen. Va qo'ymadimkim, mening davrimda qaviydan(zo'ravondan) zaif kuch

egay. Emdikim, Pir Muhammad Jahongirkim, valiahd qilibmen va o'rnungga qoyimmaqom etibmenkim, Samarqand viloyati aniki bo'lg'ay. ...Anga mute bo'lub, ittifoq bila aning ishiga mashg'ul bo'lg'aysiz, to olam buzulmag'ay va musulmonlarga tashvish va zahmat bo'lmag'ay...

Ra'oyo va fuqarou miskin holatidin g'ofil bo'lmag'aysiz... Nechukkim men adlu ehson bila olamni obod etibmen...Agar mening vasiyatim bila amal qilib, adlu dod qilsangiz, ko'b yillar davlat va mamlakat sizlarda qolg'usi turur. Va agar sizlar arosida muxolifat bo'lsa, yaxshi bo'lmag'usidur...”

Sohibqiron Amir Temur Ko'ragon 1405 yil 18 fevral chorshanba kuni sha'bon oyining o'n ettisida, namozshom va xufton orasida jon omonatini o'z egasiga topshirdi...

Amir Temur Samarqandda Amir Temur maqbarasiga dafn etilgan.

\* \* \*

**Amir Temur Ko'ragon milodiy 1336 yil 9 aprel kuni** tavallud topdi.

Milodiy 1370 yil **9 aprel kuni** 34 yoshida davlat boshiga keldi.

Podshohlik masnadida **36 yil** o'ltirdi.

O'g'lonlar va nabiralalar soni ham — **36 kishi** edi.

Sohibqiron naslidan **36 podshoh va podshohzodaga** davlatni boshqarish nasib etdi.

## **17. Dunyo adabiyotida, musiqasida, tasviriy san'atida Amir Temur haqida yaratilgan ilk asarlar**

\* **Ispan** elchisi Rui Gonsales de Klavixoning “Samarqandga

Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi(1403-1406)” Evropa tillarida e'lon qilingan birinchi yozma manbalar qatoriga kiradi.

\* **Buyuk rassom Rembrandt Boburiylar zamonidagi hind** miniatyuralaridan ilhomlanib, Amir Temur va uning vorislarini portretda aks etdirib abadiylashtirdi. Rassom Amir Temurni valiahdlar Umarshayx, Zahiriddin Bobur, Humoyun va Akbarlar davrasida tasvirlaydi.

\* **XVI asrda** yashagan mashhur ingliz shoiri va dramaturgi Kristofer

Marloning “Buyuk Temur”(1587) nomli o’lmas tragediyasida yosh Temurbek matonatli qahramon, engilmas bahodir, o’zining tengsiz aqli, salohiyati va shijoati bilan jahon tarixidagi purqudrat podsholardan biriga aylangani ta’riflanadi. Tragediya XVII asrgacha sahnadan tushmagan. Angliyada Shekspir qirolik teatri hamisha teatr mavsumini shu spektakl bilan boshlaydi.

\* Bir necha evropalik bastakorlar musiqiy asarlarda Amir Temur obrazini yaratganlar. XVII asr boshida italyan bastakori Gaspini “Amir Temur” operasini yaratdi, opera Vena teatrida sahna yuzini ko’rdi, bastakor Leo esa uni Neapol teatrida qo’yirdi.

\* Antonio Vivaldi, Skolari, Gendel va boshqa bastakorlar ham bu mavzuda musiqa asarlari yaratganlar.

\* Sharqning o’zida olti yuzdan ortiq, butun dunyoda esa mingdan ziyod kitob yozilgan va yozilmoqda. Hali dunyoda hech kim haqida, ayrim arbob yoki sarkarda to’g’risida, shunchalar ko’p kitob yozilmagan. Bu ulug’ bobomizning jahonshumul zot ekanliklarini yaqqol ko’rsatib turibdi.

## **18. Sohibqiron hikmatlaridan namunalar**

\* *B*ir ishga kirishishdan oldin chiqishni o’ylab qo’y.

\* Chin do’st uldirki, do’stidan hech qachon ranjimaydi, agar ranjisa ham, uzrini qabul qiladi.

\* Tajribamda ko’rilgankim, azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, jang ko’rgan, mard, shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir. Chunki tajribali bir kishi ming kishiga ish buyuradur.

\*Yuz ming otliq askar qilolmagan ishni bir to’g’ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin.

\* Biror ishni bajarishni o’ylasam butun zehnim, vujudim bilan

bog'lanib, bitirmagunimcha undan qo'limni tortmadum. Har neki desam unga o'zim amal qildum.

\* Raiyat ahvolidan ogoh bo'ldim, ulug'larini og'a qatorida, kichiklarini farzand o'rnida ko'rdum.

\* Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarini esa o'z yomonliklariga tobshurdum.

\* Hokimlaru si pohdan qay birining xalqqajabr-zulm etkazganini eshitsam, ularga nisbatan darhol adolatu insof yuzasidan chora ko'rdum.

\* Ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o'zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroq bo'lishga intildim.

\* Davlatu saltanat uch narsa: mulk, xazina va lashkar bilan tikdur.

\* Erlik ishida ahdni sindurmoq ravo yo'qtur va ahdni sindurg'on kishini er(kishi) desa bo'lmas.

\* Hukmdor ishni shu yo'sunda olib borsunki, toki u adolat, haqiqat, hukmdorlik zaruriyatlari va ra'iyatparvarlik uchun kafolat bo'la olsun; uning qoidalariga shunday bir tarzda amal qilsunki, toki u olamning obodligi va basharning tinch-totuvligi bilan yakun topsun.

\* Himmatni baland tutmak kerak, ko'ngulni xudoga bag'ishlamak kerak, to hazrati Alloh har ishda madadkor bo'lg'ay.

## **19. Amir Temur haqida davlat va madaniyat arboblari fikrlaridan namunalar**

\* **Sohibqiron** Amir Temurning shaxsi uning avlodlari bo'lmish faqat bizning emas, balki mintaqamizdagi barcha xalqlarning, butun ma'rifiy insoniyatning boyligidir.

*Islom Karimov*



\* Kimki o'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamog'chi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak!

*Islom Karimov*

\* Men Amir Temur zamonida bo'lsaydim, uning qilgan ishlarini bajara olmasdim. U mening zamonimda kelsaydi, qilgan ishlaridan-da juda ko'p buyuk ishlarni ado etgan bo'lardi...

*Mustafo Kamol Otaturk*

\* Sohibqironning himmati ul erdikim, yo'llar aning ayyomi davlatida emin bo'lg'ay va xudo bandalari har sorikim borsalar, alarg'a tashvish va taraddud bo'lmag'ay, farog'at bila borib kelg'aylar. Munga ko'b sa'y qilur erdi...

*Sharafiddin Ali Yazdiy*

\* Sohibqiron davlatining o'ziga xos belgilaridan yana biri shu ediki, hukmdorligining ibtidosidan intihosigacha uning lashkari birona cherikdan mag'lubiyatga uchramadi.

*Hafizi Abro'*

\* Amir Temur qanchadan-qancha daho va xufiyona fikru zakovatga ega edi...

*Ibn Arabshoh*

\* ...Hoqoni jahongiri Sohibqiron, ya'ni (Amir) Temur Ko'ragon, agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xo'b mahal va mavqe'da o'qubdurlarkim, aningdek bir bayt o'qug'oni ming bayt aytqoncha bor...

*Alisher Navoiy*

\* Amir Temurga do'stlik huzur bag'ishlar edi. Yoqimliliği tufayli do'stlar orttirdi, ularni qadrlay bildi, ularga do'st hisoblanishdan or qilmadi. Zero, Amir Temur do'stlikka faqat do'stlik bilangina javob berish mumkinligini yaxshi bilar edi.

*L. Langle*

\* Amir Temur avvalo Osiyo qo'mondoni bo'lgan va o'z davrining udum va odatlari bo'yicha o'zining g'olibona qo'shini va qurollaridan foydalandi.

*Xerman Vamberi*

\* Amir Temur jonboz bunyodkor edi, u ajoyib bog'-rog'li muhtasham inshootlar barpo etdi, shahar va qishloqlarni tikladi. Sug'orish tizimlari barpo qildi va ta'mirladi, rasmiy tarix ta'biriga ko'ra, u ekin ekishga yaroqli bir qarich erni ham bekor qo'ymasdi.

*V.V. Bartold*

\* Amir Temurning 1402 yilda Anqarada erishgan g'alabasi faqat Osiyo tarixidagina ulkan ahamiyatga ega emas. Amir Temur beixtiyor ikkinchi marta Evropa xalqlariga xizmat ko'rsatdi.

*A. Yu. Yakubovskiy*

\* Mamlakatga kuchli hokimiyat kerak edi va Amir Temur uni barpo etdi. Amir Temur "askariy hukmdor" bo'lib qoldi.

*L.N. Gumilyov*

\* Amir Temur Doro, Iskandar, Tcezar salohiyatiga teng yoki ularning barini orda qoldiruvchi buyuk ishni ado etib hokimiyat tepasiga keldi va ketma-ket g'alabaga erishaverdi.

*Tilman Nagel*

## 20. Amir Temur haqida dastavval qanday asl manbalarni o'qish kerak?

1. “Temur tuzuklari”, 1404 yil.
2. G'iyosiddin Ali. “Hindiston g'azovoti kundaligi”, 1401 yil.
3. Nizomiddin Shomiy. “Zafarnoma”, 1404 yil.  
(Ushbu ikki kitobni *Sohibqironning o'zlari o'qiganlar*)
4. Rui Gonsales de Klavixo. “Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat” kundaligi(1403-1406)”.  
5. Sharafiddin Ali Yazdiy. “Zafarnoma”, 1425 yil.
6. Hafizi Abro'. “Zayli Zafarnoma”.
7. Fasih Havofiy. “Mujmali Fasihiy” (solnoma).

**Муҳаррир *Шукур Қурбон***  
**Бадий муҳаррир *Ҳ. Худойбердиев***  
**Техник муҳаррир *Т. Смирнова***  
**Саҳифаловчи *А. Турсунов***

**Муҳаммад Али**

**АМИР ТЕМУР  
СОЛНОМАСИ**

**AMIR TEMUR  
SOLNOMASI**

Босишга 07.12. 2008 рухсат этилди  
Бичими 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
Ҳажми 3,25 б.т. Нусхаси 10 000  
Шартнома № 100/3 Буюртма № 130

Алишер Навоий номидаги  
Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти

Алишер Навоий номидаги  
Ўзбекистон Миллий кутубхонаси босмахонаси.  
100033, Тошкент шаҳри, Истиқлол кўчаси, 33.